



“Unitel” MChJ bosh direktori

Malinowski A.

№ 526/24

19.07.2024 y. dan

## Mobil aloqasi xizmatlarini taqdim etishga OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

### 1. UMUMIY QOIDALAR

1.1 O’zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh., Buxoro ko’ch., 1-uy manzilida joylashgan, mobil aloqa tarmoqlarini loyihalash, qurish, foydalanish va ko’chma (uyali) radiotelefon aloqa xizmatlarini ko’rsatish faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi **AA № 0005845** -sonli Litsenziya; shaharlararo telekommunikatsiya tizimlarini loyihalash, qurish, foydalanish va xizmat ko’rsatish faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi **AA № 0001367** -sonli Litsenziya; xalqaro telekommunikatsiya tizimlari xizmatlarini ko’rsatish huquqini beruvchi **AA № 0000940** -sonli Litsenziya; ma’lumot uzatish tizimlarini loyihalash, qurish, foydalanish va xizmat ko’rsatish faoliyati bilan shug’ullanish huquqini beruvchi **AA № 0005612** -sonli Litsenziya; ma’lumot uzatish tizimlaridan foydalanish va xizmat ko’rsatish huquqini beruvchi **AA № 0006950** -sonli Litsenziya asosida xizmatlarni ko’rsatuvchi “Unitel” MChJ (quyida “Operator”) ushbu hujjat bilan mazkur ofertani quyida aytib o’tilgan harakatlar bilan qa’bul qilgan jismoniy shaxslarga (quyida – “Abonent”, ikkala tomon birgalikda “Shartnoma tomonlari”) quyidagi shartlarga muvofiq quyidagi xizmatlarini (keyingi matnda – “Xizmatlar”, “Aloqa xizmatlari”) taqdim etadi. Ushbu Ommaviy oferta va barcha uning ilovalari va bitimlari mobil aloqa xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha shartnoma hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur Ommaviy oferta shartlari shartnoma Tomonlari riosa qilishi kerak bo’lgan mobil aloqa xizmatlarini ko’rsatish Qoidalari hamdir. Quyida matndagi shartnoma (ushbu shartnoma), hamda Oferta (ushbu Oferta) deb yuritiladigan atamalar bir hil ma’noga egadir.

1.2 Mobil aloqa xizmatlarini ko’rsatishga bo’lgan shartnomaning mazmuni - Operator tomonidan Abonentga O’zbekiston Respublikasi hududida Operator tarmog’iga uni ulash hamda ashyoviy shaklga ega bo’limgan muayyan texnika operatsiyalarini bajarish orqali xizmatlarni ko’rsatish hisoblanadi. Abonent tanloviga ko’ra, Abonent jihozining oldi-sotdisi bilan bog’liq munosabatlar shartnoma qoidalari belgilanishi mumkin. Ushbu oferta shartlari Abonent tomonidan to’liq va so’zsiz qa’bul qilinganda, shu jumladan Abonent o’zi tanlagan tarif rejasiga, va tanlagan Abonent jihozining narxiga muvofiq aloqa xizmatlari haqini oldindan to’lagan va majburiyatini bajargan taqdirda Abonentga aloqa xizmatlari ko’rsatiladi.

1.2.1 Mobil elektron to’lovlar xizmatlarini taqdim etish tartibi va shartlari mazkur Ommaviy ofertaning ajralmas qismi bo’lgan ilovada bayon etilgan mobil elektron to’lovlar xizmatlarini taqdim etish qoidalari bilan belgilanadi.

1.3 Mazkur ofertaning maqsadlari uchun quyidagi asosiy atamalar qo’llanadi:

**Abonent** – Abonentlik shartnomasi tuzilgan va bir donadan kam bo’limgan Abonent raqami taqdim etilgan jismoniy shaxs.

**Abonentlik shartnomasi** – Ommaviy oferta shartlari asosida Abonent va Operator o’rtasida tuziladigan, mazkur Oferta, Narxnomalar, Ro’yxatga olish blanki, oferta shartlari va uning barcha ilovalaridan va bitimlaridan tashkil topgan shartnomadir.

**Abonentlik raqami** – Abonent uskunasini boshqa qurilmalar bilan aloqasi paytida telekommunikasiya tarmoqlarida identifikasiya qilib, xizmat ko’rsatish uchun Abonentga shartnoma asosida ajratiladigan raqam.

**Abonent uskunasi** – tarmoqqa ulanadigan, hamda elektr aloqa signallarini radiokanalalar bo'yicha axborot uzatish va qabul qilish uchun shakllab beradigan texnika vositasi. Abonent uskunasi va unga bo'lган dasturiy ta'minot Abonent tomonidan o'z hisobiga mustaqil, yoki Operatordan xarid qilinadi, uning mulki hisoblanadi hamda "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuning 24 moddasiga muvofiq tegishlicha sertifikatlangan bo'lishi lozim.

**Abonentlik to'lovi** – abonentga ma'lum aloqa xizmatlaridan foydalanish yoki ma'lum tarif rejasiga ko'ra aloqa xizmatlaridan foydalanish imkoniyati evaziga Kompaniyaning Narx-navo varaqlarida belgilangan miqdor va davriylikda abonentning shaxsiy hisob varag'idagi hisobdan chiqariladigan to'lov.

**Ekspress to'lov kartasini ishlatalish** – natijasida Abonentning shaxsiy hisob varag'ini ekspress to'lov kartasida ko'rsatilgan summaga to'ldirish tartibi.

**Operator tarmog'iga kirish** – Operator taqdim etadigan xizmatlardan foydalanish uchun Operator tarmog'iga kirish imkonи.

**Tarifikasiya birligi** – Operator tanlagan tarifikasiya tizimiga ko'ra Abonent tomonidan haqi to'lanadigan telefon so'zlashuvi davomiyligi birligi.

**Operatorning xizmat ko'rsatish doirasi** – Litsenziyal kelishuv asosida Operator aloqa xizmatlarini ko'rsatish huquqiga, O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi normativ aktlar va/yoki standartlarga (boshqaruvchi xujjalr) mos sifatda aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun texnik imkoniyatlarga ega bo'lган hudud.

**To'lov kartasi** – Abonentga aloqa xizmatlarini taqdim etilishi mumkin bo'lган mablag'i, amal qilish davri, tartib raqami, mahfiy kodi, himoya qatlami va boshqa ma'lumotlari bo'lган karton yoki plastik karta.

**Kontent** – axborot, ko'ngil ochar xususiyatga ega SMS, MMS, GPRS orqali olingan matnli yoki multimedia ma'lumotlari.

**Kontent xizmatlar** - bu texnologik jihatdan harakatdagi radiotelefon aloqa xizmatlari bilan uzviy bog'liq bo'lган va ularning iste'mol qiymatini oshirishga yo'naltirilgan xizmatlar turi bo'lib, uchinchi shaxslar bilan birgalikda taqdim etiladi, ularning qiymatini Abonent tomonidan to'lanadi.

**Alohida tarif** – Operator tomonidan tarif rejasiga kirmaydigan alohida xizmat uchun belgilanadigan tarif. Alohida tarif biror-bir tarif rejasi tanlovi bilan shartlanmagan. Alohida tariflar yoki Operatorning Narx-navo varaqlarida, yoki Abonent bilan tuzilgan shartnomada, yoki Internetda (Operatorning rasmiy WEB-saytida), yoki ommaviy axborot vositalarida ko'rsatiladi.

**MyID** – "Beeline Uzbekistan" mobil ilovasiga o'rnatilgan "MyID" deb nomlangan UZINFOCOM ilovasining funksiyasi bo'lib, u biometrik yuz parametrlari (yuz geometriyasi) yordamida jismoniy shaxslarni identifikasiyalash va autentifikatsiya qilish imkonini beradi, ularga Operator xizmatlaridan ruxsat etilgan onlayn foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

**Operator ofisi** – Operatorning Toshkent shahridagi bosh ofisi va uning O'zbekiston Respublikasi viloyatlaridagi filiallari ofislari.

**Abonent raqamini ko'chirish (MNP)** - boshqa operator (qabul qiluvchi) bilan yangi shartnoma tuzishda uyali aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi asosida donor tomonidan ajratilgan abonent raqamini saqlash va undan foydalanish bo'yicha tashkiliy va texnik chora-tadbirlar kompleksi. Abonent raqamini ko'chirish Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyundagi 3275-son ro'yxatidan o'tkazilgan), shuningdek ushbu Ommaviy ofertaning 3-ilovasida nazarda tutilgan.

**Narxnama (Price List)** – Abonent shartnomasining ajralmas qismi bo'lib, Operator tomonidan belgilanadigan tarif rejalarini va alohida tariflarning yig'indisi.

**Mobil elektron to'lov xizmatlarini taqdim etish qoidalari** - Abonent tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq onlayn shakldagi fuqarolik-huquqiy bitimlar bo'yicha to'lovlarini va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish, shu jumladan, Operatorning axborot tizimi va tarmog'i orqali Abonent tomonidan Elektron pullar tizimining operatori yoki Uchinchi shaxslar xizmatidan foydalangan holda Abonentning elektron hamyonini to'ldirish va Elektron pullar bilan to'lovlarini amalga oshirish jarayonidagi Operator va Abonentning munosabatlarini tartibga soladigan qoidalardir (2-ilova).

**Foydalanishga ruhsat berish** – Operator tomonidan Abonentga Abonentlik raqamini taqdim etish va uni tarmoqqa ulan operatsiyalarini bajarish.

**Radiotelefon ulanish davomiyligi** - Operator uskunasida chaqirilayotgan tomonning javobi aniqlangandan boshlab Operator uskunasida tomonlarning biri radiotelefon ulanishni o'chirishini aniqlashgacha bo'lган vaqt intervali davomiyligi.

**Hamkorlar** – operator tomonidan shartnoma asosida sifatli xizmat ko'rsatish yoki istalgan xizmat targ'iboti, shu jumladan, operator ish jarayonlariga xizmat ko'rsatuvchi shaxslar va operator tarmog'i orqali abonentlarga xizmat ko'rsatuvchi provayderlar.

Operator vakili (agent, diler, distribyuter, shuningdek subagent va vakillar) – yuridik yoki jismoniy shaxs ishonchnomaga yoki shartnoma asosida Operatoriga:

- Abonent raqamlari va/yoki Sim/eSim kartalar tarqatilishini amalga oshirish va/yoki;
- Operator nomidan uyali aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun shartnoma tuzish va/yoki;
- Abonentlarga Operator xizmatlarini ko'rsatish (to'lov qabil qilish va xz)

**Radiotelefon ullanish** – abonentlardan hech bo'lmasa biri axborot almashish imkonini ta'minlab beruvchi Tarmoq Abonenti bo'lgan tarmoq aloqa xizmatlari foydalanuvchilarining Abonent jihozlari o'rtasida radiotelefon aloqaning o'rnatilishi.

**Ro'yxatga olish blanki** – abonent tomonidan mazkur shartnoma shartlariga qo'shilib, uning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish, abonent haqidagi ma'lumotlar; abonent raqami va boshqa ma'lumotlarni imzo qo'yish orqali tasdiqlovchi hujjat.

**Rouming (Roaming)** – Operator abonentining shu davlatdagi boshqa operatorning xizmat ko'rsatish hududida boshqa Operatorning tarmog'iga ullanish(milliy rouming) yoki boshqa davlatdagi boshqa Operatorning xizmat ko'rsatish hududida boshqa operatorning tarmog'iga ullanish (xalqaro rouming) imkonini beruvchi xizmat. Operatorning rouming-hamkorlari va ularning davlatlari ro'yxati faqat ma'lum sana uchun amal qiladi va vaqt-i-vaqt bilan o'zgarib turishi mumkin. Rouming,-hamkorlar va davlatlar ro'yxati, va shuningdek rouming xizmatlari tariflari Operator tomonidan rasmiy WEB-saytda hamda matbuotdag'i axborot materiallarida bosib chiqariladi.

**Tarmoq** – ko'chma uyali aloqa Tarmog'i bo'lib, texnika vositalarining (kommutatsiya va radio xizmati, abonentlik jihozlari, ullanish liniyalari, inshootlari va shu kabilar) yig'indisidir, shular yordamida Abonentga ko'chma radiotelefon aloqa xizmatlari taqdim etiladi (telefon, axborot uzatish va boshqelar).

**SIM -karta** (bundan buyon matnda SIM karta deb yuritiladi) - ichiga mikrosxema o'rnatilgan, olinuvchi identifikasiya moduli. Uning yordamida abonent qurilmasini identifikasiya qilish, uning mobil aloqa tarmog'idan foydalana olishi, shuningdek, abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish ta'minlanadi; Abonentga ifentifikatsiyalanish, kompaniya tarmog'iga kirish (ullanish) va aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun ajratilgan sim-kartaning qiymati abonent tanlagan tarif rejasining narxiga kiradi.

**eSIM** – abonent kurilmasining virtual identifikasiya moduli, uning yordamida abonent kurilmasining identifikasiya qilish, uning mobil aloqa tarmog'idan foydana olishi, shuningdek , abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish taminlanadi;

**SMS** – qisqa xabarlar xizmati.

**Tarifikatsiya tizimi** – aloqa xizmatlarining har xil turlariga va to'plamiga ko'rsatiladigan xizmatlar haqini hisoblash usuli.

**Tariflar** – ma'lum turdag'i aloqa xizmati narx(lar)i.

**Tarif rejasi** – aloqa xizmatlarining ma'lum to'plamiga muvofiq belgilangan tariflar ro'yxati.

**Tarmoqqa kirishni taqdim etishning texnik imkoni** – ajratilgan radiochastota resursini inobatga olgan holdagi abonent raqamlari hajmida va/yoki aloqa kanallarida, shu jumladan radiokanallarda bo'sh raqamlarning mayjudligi.

**Aloqa xizmatlarini taqdim etishning texnik imkonlari** – Operator xizmati hududida ishlab turgan va Abonentga tegishli aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan texnika vositalari va aloqa inshootlarining mayjudligi.

**Tranzaksiya** – Natijasida taqdim etilgan Xizmatlar uchun Abonentning elektron hisobidan pul mablag'larini yechib olinadigan operatsiya. Operator quyidagilarni tranzaksiya bilan tenglashtirish huquqiga ega:

- Amalga oshirilgan, shu jumladan roumingda amalga oshirilgan chiqish qo'ng'irog'i (davomiyligi 0 sekunddan ko'p bo'lgan)(shoshilinch xizmatlarga va Operatorning bepul servis raqamlariga qo'ng'iroqlardan tashqari);
- Tarmoq ichidagi va boshqa operatorlarning abonent raqamlariga barcha chiquvchi SMS va MMS xabarları;
- Barcha kiruvchi tarifikatsiyalanadigan SMS lar;
- Abonent to'lovini yechilishi («Raqamni saqlash» xizmati bo'yicha mablag'larning yechilishi bundan mustasno);
- Xizmatlarni boshqarishning barcha pullik tranzaksiyalari;
- Ma'lumotlar qabul qilish va uzatishning bo'lib o'tgan barcha sessiyalari;
- «Mobil pul o'tkazma» xizmati bo'yicha muvaffaqiyatlari o'tkazma yoki ma'lum bir mablag'ni qabul qilish.

**Operator xizmatlari** – radiosignalarni qabul qilish, ularga ishlov berish, uzatish, asosiy va qo'shimcha aloqa xizmatlari va uyali aloqa tarmo'gi texnik imkoniyatlaridan kelib chiquvchi boshqa servislar majmui bo'lib, abonentni o'zi yoki tuzilgan shartnomalar asosida uchinchi shaxsni jalb etgan holda tarmoqqa ulash.

**Internet tamog'iga ullanish xizmati** – Internet tarmog'i orqali qabul qilish va uzatish xizmati.

**Operatorning vakolatli ofisi** – Operatorning mansabdor shaxsi imzosi va muhri bilan tasdiqlangan rasmiy hujjat asosida Abonent bilan ko'chma (uyali) radiotelefon aloqa xizmatlarini taqdim etish shartnomasini tuzish, va/yoki Operator taqdim etgan xizmatlar haqini qabul qilish huquqi bo'lган Operator abonentlariga boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi uchinchi shaxslarning, operator vakillarining ofisi.

**Cheklov miqdori** – Abonentning shaxsiy Elektron hisobvarag'idiagi (balansidagi) pul mablag'larining eng kam miqdori, shunga ko'ra Operator Abonentga taqdim etiladigan aloqa xizmatlari hajmini cheklash yoki to'liq hajmda to'xtatish huquqiga ega.

**Frod** — Kompaniya tarafidan taqdim etiladigan Aloqa xizmatlaridan o'rnatilgan tartib va taomillarni buzib, tegishli to'lovsiz, shuningdek Operatorning yoki abonentning pul mablag'ini o'zlashtirib olgan holda foydalanishga olib kelgan jismoniy shaxsning qasddan harakati yoki harakatsizligi.

**GSM shlyuz** – umumiy foydalanish statcionar tarmog'iga yoki mobil operator tarmog'iga ulanuvchi va telefon qurilmasidan kiruvchi barcha qo'ng'iroqlarni GSM shlyuz tarmoqlaridan biriga va undan mahalliy telefon tarmog'iga yo'naltirib, mahalliy qo'ng'iroq sifatida baholash imkonini beruvchi bir yoki ko'p kanalli mobil qurilma.

**Elektron (Shaxsiy) hisob** - Abonentning olish imkonini bo'lган Operator xizmatlari hajmining pullik ekvivalentida ko'rsatilgan ma'lumotni o'zida saqlovchi Operatorning avtomatlashtirilgan hisoblash tizimidagi elektron fayl.

**Shaxsga doir ma'lumotlar** – muayyan jismoniy shaxsga taaluqli bo'lган yoki uni identifikasiya qilish imkonini beradigan, electron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot. Abonentlar to'g'risidagi ma'lumotlarga quyidagilar kiradi: jismoniy shaxsning - Abonentning familiyasi, ismi, otasining ismi; Abonent manzili, tahallusi, abonentlik raqamlari hamda Abonent va uning abonent jihozini aniq tasniflash imkonini beruvchi boshqa ma'lumotlar. Mazkur ma'lumotlar ro'yxati operator tomonidan tasdiqlanadi va uning rasmiy web saytida joylanadi.

**IMEI kodi** (International Mobile Equipment Identifier) yoki xalqaro o'ziga xos identifikasiya kodi (bundan buyon matnda IMEI-kod deb yuritiladi) - 15 raqamdan iborat bo'lган va GSMA tomonidan ajratiladigan, shuningdek, tarmoqda GSM/UMTS/LTE standartlarida ishlovchi mobil aloqa abonent qurilmasini identifikatsiyalovchi raqam.

**Cashback** - operator tomonidan ko'rsatilayotgan aloqa xizmatlari uchun chegirma sifatida qollaniladigan Abonent elektron shaxsiy hisob raqamiga kiritilgan pul mablag'larining ekvivalenti.

**Aksept (Qabul qilish)** - ushbu Ofertaning barcha shartlarini to'liq va shartsiz qabul qilish, Ofertaning 2.1-bandda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Abonentlarning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va qayta ishlashdan maqsad, Operator bilan shartnoma tuzgan Abonentlarga, Operator tomonidan mobil aloqa xizmatlarini va boshqa qo'shimcha xizmatlarini ko'rsatish, foydalanuvchi (terminal) uskunasidan foydalangan shaxslarni aniqlash va identifikasiya qilish, uchinchi shaxslarga taqdim etish va ularni o'tkazish, Operator tomonidan tuzilgan shartnomalar asosida uchinchi shaxslarning tomonidan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash va ularni qayta ishlash xavfsizligini ta'minlash majburiyatining muhim sharti bilan jalb qilingan, ma'lumotlarni yetarli darajada himoyalangan mamlakatlarga transchegaraviy uzatish, shu jumladan O'z. R. amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda huquqni muhofaza qilish funktsiyalarini bajaruvchi shaxslarga ma'lumotlar uzatish; qonuniy va oqilona talablar asosida.

Operator operasion maqsadlarda, Abonentlarga effektiv xizmat ko'rsatish va shunga mos keluvchi tijorat maqsadlarida shaxsga doir ma'lumotlarni «UNITEL» MCHJ rasmiy saytida joylangan yig'ish, qayta ishlash va ulardan foydalanish siyosatiga ko'ra amalga oshiradi.

1.4 Shartnoma shartlari Operator tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq mustaqil belgilanadi. Tarmoqdagi ko'chma (uyali) radiotelefon aloqa xizmatlari, Abonent tanlagan xizmatlar to'plami va tarif rejasiga muvofiq, barcha Abonentlarga teng shartlarda ko'rsatilishi ta'minlanadi.

1.5 Operator tomonidan Abonentlarga ko'rsatiladigan asosiy va qo'shimcha xizmatlar ro'yxati, aloqa va axborotlashtirish sohasidagi ijroiya organining normativ-texnikaviy hujjatlarini inobatga olgan holda, Lisenziya asosida, hamda Operatorga yoki O'zbekiston Respublikasida umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tizimini tashkil qiluvchi telekommunikatsiya tarmoqlari Operatorlariga tegishli bo'lган tarmoqlarning va aloqa vositalarining texnika imkoniyatlari bilan belgilanadi va Operatorning Narx-navo varaqlarida ko'rsatiladi. Xizmatlar ro'yxati texnikaviy, tashkiliy va/yoki moliyaviy sharoitlarga ko'ra vaqt-i-vaqt bilan o'zgarishi mumkin.

- 1.6 Operator xodimlariga o'z xizmat vazifalarini bajarish oqibatida ma'lum bo'lib qolgan Abonentlar to'g'risidagi ma'lumotlar mahfiy hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq himoyalanadi. Mahfiy ma'lumotlar, Abonent Operator xizmatlaridan foydalanganida, shuningdek Operator web-saytiga kirganida qo'llaniladi. Mahfiy ma'lumotlar, Abonent Operator tarmog'i va xizmatlari orqali boshqa kompaniyalar web-saytlari va xizmatlaridan foydalangan taqdirda ham, ularga nisbatan qo'llanilmaydi.
- 1.7 Telekommunikatsiya tizimlari bo'yicha uzatiladigan xabarlar hamda xabarlarning o'zi to'g'risidagi axborot faqat ularni jo'natuvchilariga (Operator Abonentlariga) yoki ularning qonuniy vakillariga berilishi mumkin. Telefon orqali suhbatlarni eshitish, telekommunikasiya tarmoqlari orqali tarqaluvchi habarlarni o'qish, ular bilan tanishish va suhbat sirining boshqa cheklovlariga faqatgina qonunda belgilangan holatlarda va qonunda belgilangan tartibda yo'l qo'yiladi.

Operator qonunda belgilangan holatlardan tashqari holatlarda shartnomada ko'rsatilgan xizmatlarni ko'rsatish jarayonida olgan shaxsga doir ma'lumotlarni Abonentning roziligesiz uchinchi shaxsga berish yoki tarqatish huquqiga ega emas.

## **2. SHARTNOMANI TUZISH VA BEKOR QILISH TARTIBI VA SHARTLARI**

- 2.1 Abonent va Operator o'rtaqidagi aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi Operator Ofislari, Operatorning tijorat vakillari Vakolatli ofislari va MyID yordamida «Beeline Uzbekistan» mobil ilovasi orqali ommaviy oferta shartlari asosida tuziladi. Jismoniy shaxsning Ro'yxatga olish blankini imzolaganligi, Uning SIM/eSim karta olishi va ushbu SIM/eSim kartadan foydalangan holda, Mazkur offertaning 5.2.bandida nomi aytib chiqilgan Abonent uskunasiga birinchi qo'ng'iroq qilishi uning shartnomani qa'bul qilganligi hisoblanadi. Jismoniy shaxsning "Beeline Uzbekistan" mobil ilovasidagi roziligi "Beeline Uzbekistan" mobil ilovasida ro'yxatdan o'tish va Abonentning "elektron (shaxsiy)" hisobvarag'iga birinchi tranzaksiyani amalga oshirish bosqichida roziliginibildirish fakti "Beeline Uzbekistan" mobil ilovasidagi roziligi (Shartnoma tuzishga rozilik) hisoblanadi. Operatorning rozilikni qa'bul qilishi mazkur shartnomaning yozma va elektron shaklda ravishda tuzilganini bildiradi.
- 2.2 Quyidagi hollarda Operator aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini tuzishni rad etishi mumkin:
- 1) operator tarmog'iga kirish uchun texnik imkon bo'limganda;
  - 2) abonent so'ragan ko'chma radiotelefon aloqa Tarmog'i xizmatlarini ko'rsatishning texnikaviy imkoniyati bo'limganda;
  - 3) operatorda Abonentga tegishli jihoz haqida u boshqa Abonent tomonidan yo'qotilgan yoki O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq sertifikatlanmaganligi to'g'risidagi axborot bo'lganda;
  - 4) operatorda potensial Abonentning Operator tomonidan avval ko'rsatilgan aloqa xizmatlari uchun qarzi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumot bo'lganda;
  - 5) agar potensial Abonentni doimiy yoki vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish joyini tasdiqlovchi ma'lumot taqdim etilmagan bo'lsa.
- 2.3 Quyidagi hollarda shartnoma Operator tomonidan bir taraflama bekor qilinishi mumkin:
- 1) bajarishning imkon bo'limganda (yengib bo'lmaydigan hodisa, texnik imkoniyati yo'qligi va sh.k. sababi);
  - 2) natijasida majburiyatlarni bajarish imkon bo'lmaydigan davlat organi hujjatining chiqarlishi, xususan, belgilangan qonuniy tartibda Operator litsenziyasini qaytarib olish, amal qilishini to'xtatib qo'yish, bekor qilish;
  - 3) operator tarafidan taqdim etilgan aloqa Xizmatlaridan foydalanish chog'ida telekommunikats-yalar sohasidagi tadbirkorlik faoliyati tizimining Abonent tarafidan buzilishi, shuningdek Abonentning shu jumladan ularga qisqa xabarlar yo'llash va telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish orqali Abonent/Operatorni haqoratlovchi va obro'siga putr yetkazuvchi bezorilik harakatlari;
  - 4) tarmoqqa ulangan SIM/eSim-karta uchinchi shaxslarga berilgan taqdirda;
  - 5) abonent tarafidan frot yoki frot qilishga harakat aniqlanganda;
  - 6) 6.8; 6.9 punktlarida nazarda tutilgan vaziyatlarda Operator Aloqa xizmatlarini ko'rsatishni to'xtetadi;

- 7) Ushbu shartnomaning 8.5 bo'limida ko'rsatilgan harakatlar aniqlangan holda;
- 8) mazkur shartnomada yoki O'zbekiston Respublikasi qonuniy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

2.4. Shartnoma bekor qilinganda, SIM/eSim -kartani tarmoqqa ulash haqi, shuningdek, Abonent tomonidan sotib olingan SIM/eSim -kartalar, hamda sotib olingan va ishlatilmagan to'lov kartalarining haqi Abonentga qaytarilmaydi. Abonentning mulki bo'lган abonent uskunasi Operator tomonidan sotib olinmaydi. Chiroyli "oltin" abonent raqamini tanlash xizmati haqi Operator tomonidan qoplanmaydi.

2.5. Shartnoma bekor qilingan holda, Abonentning shaxsiy «elektron» hisob raqamidagi ijobjiy balans qoldig'ini Abonentga tegishli bo'lган bank hisob raqamiga yoki ushbu Abonentga tegishli boshqa raqamning «elektron» hisobiga naqd pulsiz hisob-kitoblar shaklida mablag' o'tkazish yo'li bilan mazkur ofertaning 6.15. qismiga binoan Abonentga qaytariladi. Bunda Abonent Operatorga tegishli ravishda yozma ariza berishi, shaxsini tasdiqlaydigan hujjat (pasport/ID-karta, yangi na'munadagi haydovchilik guvohnomasi, harbiy xizmatchining pasport ma'lumotlarini va u ro'yxatdan o'tgan joyni tasdiqlaydigan, belgilangan shakldagi ma'lumotnomasi ilova qilingan harbiy bilet/guvohnoma) ning asl nusxasini ko'rsatishi va uning bank rekvizitlari to'g'risidagi axborotni taqdim etishi shart.

2.5.1. Pul mablag'larini qaytarish Abonentning yozma arizasi Kompaniyaning ochiq ofislarida ro'yxatga olingan kundan boshlab 30 kun ichida amalga oshiriladi.

2.5.2. Abonent Shartnoma bekor qilingan paytdan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidan belgilangan da'vo muddati davrida «elektron» hisob raqamida qolgan pul mablag'larini Shartnoma bekor qilingan paytdan boshlab qaytarib berishni talab qilishga haqli. Agar Abonent belgilangan muddat tugaganidan keyin Kompaniyaga murojaat qilgan bo'lsa, mablag'lar qaytarilmaydi.

2.5.3. Abonentga Operator xizmatlari uchun avans sifatida kiritilgan pul mablag'larining qaytarilishi, taraflarning qonun hujjatlariga va shartnoma munosabatlari zid bo'lmagan boshqa hollarda ham amalga oshirilishi mumkin.

2.5.4. Abonent «elektron» hisob raqamidan pul mablag'larini toplash uchun foydalanganda (tarif rejasiga bo'yicha o'rtacha oylik abonent to'lov miqdorining 20 baravari va undan ortiq bo'lган mablag'), shu jumladan uchinchi shaxslardan tushgan mablag'lar bo'lгanda, mazkur ofertaning 4.1. qismini buzgan holda, Operator quyidagi huquqlarga ega:

- Abonentga qaytariladigan summaning 4,5% miqdorida jarima sanksiyasini qo'llash;
- xavflarni baholash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 26.08.2004 yildagi 660-II-sonli «Inoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida» gi qonuniga muvofiq jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan shug'ullanuvchi vakolatli davlat organlariga murojaat qilish.

2.6 Agar abonent "Beeline Uzbekistan" mobil ilovasida ko'rsatilgan muddat ichida buyurtma qilingan abonent raqamini faollashtirmasa, Operator abonent tomonidan to'langan summadan 20% ni olib qolishga haqli.

Ushbu shartnoma tomoni sifatida Abonent o'zgarganda, sobiq Abonent o'lган taqdirda (shu jumlandan, ishga tushirilgan SIM/eSim -karta meros qolganda, sovg'a qilib olinganda), sobiq Abonent bilan shartnoma bekor qilinadi (tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda) va yangi Abonent bilan aloqa xizmatlari ko'rsatilishi yuzasidan shartnoma tuziladi. Bunda operator (amaldagi tarif rejasiga muvofiq) Abonent to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini qayta rasmiylashtirish bilan bog'liq to'lovari va sobiq Abonentning qarzi qoplanishini talab qilishga haqli.

2.6. Ushbu Oferta shartlari bo'yicha shartnoma tuzishda, Abonent, Operatorga uyali aloqa xizmatlarini ko'rsatish jarayonida ma'lum bo'lган, shaxsiy ma'lumotlarini va boshqa ma'lumotlarni qayta ishlashiga Operatorga rozilik beradi, foydalanuvchi (terminal) uskunasidan foydalangan shaxslarni aniqlashiga va identifikatsiya qilishiga, uchinchi shaxslarga taqdim etishiga va ularni o'tkazishiga, Operator tomonidan tuzilgan shartnomalar asosida uchinchi shaxslarning tomonidan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash va ularni qayta ishlash xavfsizligini ta'minlash majburiyatining muhim sharti bilan jalb qilingan, shuningdek ma'lumotlarni yetarli darajada himoyalangan mamlakatlarga transchegaraviy uzatishiga, shu jumladan O'z. R. amaldagi qonunchiligidan nazarda tutilgan hollarda huquqni muhofaza qilish funktsiyalarini bajaruvchi shaxslarga ma'lumotlar uzatishiga; qonuniy va oqilona talablar asosida.

2.7. Operator shartnoma tuzilgan vaqtidan boshlab, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadiga erishilgan vaqtgacha davrda o'zining dasturiy-apparat vositalaridan foydalanib Abonentning ma'lumotlarini

qayta ishlaydi. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash deganda, shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlar (operatsiyalar), jumladan, shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, tartibga solish, toplash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), foydalanish, egasiz qoldirish, blokirovkalash va yo'q qilish tushuniladi. Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashga Abonentning roziliginini bekor qilish Abonentning talabiga binoan amalga oshiriladi. Xizmatlarni taqdim etish imkoniyati, Operatorda Abonentning shaxsiy ma'lumotlari mavjudligiga bog'liq, va rozilik qaytarib olingan taqdirda Xizmatlarni taqdim etish cheklangan bo'ladi.

- 2.8. Operator olingan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlaydi.
- 2.9. Shartnoma bo'yicha va/yoki Xizmat foydalanuvchilar doirasida o'zaro hamkorlik qilish maqsadida, me'yoriy hujjatlar talablarini bajarish maqsadida (Abonentlar – yuridik shaxslar uchun) aloqa shahslarining shahsiy ma'lumotlari taqdim etilgan taqdirda, Abonent aloqa qiluvchi shahsining Operatorga ko'rsatiladigan Xizmatlar bo'yicha axborot va takliflarni olish, aloqa qiluvchi shaxs va Xizmatlaridan foydalanuvchilarining shaxsiy ma'lumotlarini Operatorga uzatishga roziliginini kafolatlaydi. Abonent shaxsiy ma'lumotlarni Operatorga o'tkazish to'g'risida aloqa qiluvchi shaxsni va Xizmatlardan foydalanuvchilarini oldindan xabardor qilinishini tasdiqlaydi.
- 2.10. Abonentning shaxsiy ma'lumotlarini Operator tomonidan jalg qilingan uchinchi shaxslar tomonidan tegishli bitimlar asosida shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun qayta ishlashi mumkin. Operator tomonidan uchinchi shaxslar bilan tuzilgan shartnomalarning muhim sharti shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini va ularni uchinchi shaxslar tomonidan qayta ishlash xavfsizligini ta'minlash majburiyatidir. Abonentlarning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashda Operator ishtirot etgan uchinchi shaxslarning ro'yxati Operator tomonidan Operator saytida joylashtirilishi mumkin. Operator uchinchi shaxslarning ro'yxatini aniqlash va o'zgartirish huquqiga ega.
- 2.11. Agar Abonent shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga o'z roziliginini qaytarib olishga qaror qilgan bo'lsa, Operator ushbu Ofertada ko'rsatilgan Xizmatlarni taqdim etishini cheklaydi. Abonentning shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligi bekor qilingan taqdirda, shuningdek, maqsadlarga erishilgandan so'ng, Operator taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni yo'q qilishi mumkin.

### **3. OPERATORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

#### **3.1 Operator quyidagilarga majbur:**

- 1) abonentga ushbu shartnoma amal qilish davrida ishga tushirilgan SIM/eSim karta va Abonent raqamini taqdim etish;
- 2) abonentga u ko'chma radiotelefon (uyali) aloqa Tarmog'i xizmati doirasi hududida bo'lganida aloqa xizmatlarini taqdim etish; ko'chma radiotelefon aloqa Tarmog'i xizmati doirasi hududida aloqa xizmatlarining sifati O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi, ko'chma radiotelefon (uyali) aloqa faoliyatini reglament qiluvchi standartlar, texnikaviy me'yorlar va boshqa me'yoriy xujjalarga, shuningdek Operator tarafidan taqdim etilgan aloqa xizmatlari shartlari haqidagi ma'lumotga mos kelishi lozim;
- 3) xizmat doirasi hududida Abonentning tezkor operativ xizmatlarga (101- yong'indan saqlash, 102-militsiya, 103- tez tibbiy yordam, 104-avariya gaz xizmati, 1050-FVV xizmati) tunu-kun bepul qo'ng'iroq qilish imkonini ta'minlash;
- 4) abonentga aloqa xizmatlari to'g'risidagi aniq axborotni taqdim etish;
- 5) tarif rejasiga o'zgartirishlar kiritilishi haqidagi axborot mazkur o'zgartirish Abonentga salbiy ta'sir ko'rsatsa 15 kundan kechiktirilmasdan rasmiy WEB-sayt ([www.beeline.uz](http://www.beeline.uz)) va savdo ofislari orqali Abonentga xabar berish
- 6) abonentlarga aloqa xizmatlarini ko'rsatish vaqtida aloqa xizmatida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish choralarini ko'rish;
- 7) abonent uchun aloqa xizmatlaridan foydalanish va shu xizmatlar uchun hisob-kitoblar, aloqa sifati borasidagi maslahatlarni tashkillashtirish;
- 8) operatorning O'zbekiston Respublikasi va chet eldag'i (rouming) uyali ko'chma radiotelefon aloqa tarmoqlari Operatorlari bilan tuzilgan tegishli shartnomalari mavjudligida va shunday xizmat Abonent tanlagan tarif rejasida nazarda tutilgan bo'lsa, Abonentga boshqa tarmoqlarning xizmatlaridan foydalanish imkonini taqdim etish;

- 9) aloqa xizmati haqini to'lamagani va/yoki abonent to'lovini to'lamagani uchun xizmat ko'rsatilmayotgan Abonentni u aloqa xizmatlari haqini va o'zi tanlangan tarif rejasi bo'yicha to'lovni oldindan amalga oshirganidan so'ng Tarmoqqa ulash.
- 10) abonent tarafidan mos tarif rejasi tanlanganda, Abonentga Abonent uskunasini mazkur shartnomada belgilangan shartlar asosida taqdim etish;

### **3.2 Operator quyidagi huquqlarga ega:**

- 1) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Ommaviy ofertani bekor qilish, Operatorning ommaviy telekommunikatsion tarmoqda joylashgan rasmiy WEB-saytida ([www.beeline.uz](http://www.beeline.uz)) tegishli axborotni joylashtirish yo'li bilan, yoki Operator uchun maqbul bo'lgan boshqa usullar orqali Abonentlarni ogohlantirgan holda, ushbu ofertaga o'zgartirishlar kiritish va tegishli axborot joylashtirilgan kundan boshlab 15 kun ichida Operator Abonentdan bunday o'zgarishlarni to'liq yoki qisman rad etilishi haqidagi xabarni olmasa, shartnomaga bo'lgan o'zgarishlar qabul qilingan hisoblanadi;
- 2) ushbu shartnomaga shartlari va Qonunchilik aktlari abonent tomonidan buzilgan taqdirda Abonent jihozini Tarmoqdan uzish. Nuqsonlar to'liq bartaraf etilib, Abonent jihozining Tarmoqqa takroran ulanishi Operator tariflari bo'yicha amalga oshiriladi, bunda Abonentda avvalgi Abonentlik raqami saqlab qolinishiga kafolat berilmaydi;
- 3) o'zgartirishlar amalga oshirilishidan kamida 15 kun avval abonentni xabardor qilgan holda, tarif rejalariga taalluqli aloqa xizmatlari uchun tarif rejalar, tizim, shartlar, shakllar va to'lov shartlariga o'zgartirishlar kiritishga;
- 4) o'zgartirishlar amalga oshirilishidan kamida 10 kun avval abonentni xabardor qilgan holda, tarif rejalariga taalluqli bo'limgan aloqa xizmatlari uchun tizim, shartlar, shakllar va to'lov shartlariga o'zgartirishlar kiritishga;
- 5) abonentni o'zgarishlar amalga kiritilishidan oldin 15 kundan kechiktirmasdan xabarlagan holda tarif rejalarini, Aloqa xizmatlari haqini to'lash tizimi, shartlari, shakllari va muddatlarini o'zgartirish.
- 6) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, bir taraflama tartibda Abonentga berilgan Abonentlik raqamini o'zgartirish;
- 7) Shartnomaga bekor qilinganda, Abonentning elektron hisobidagi ijobiy balansni uning plastik kartasi yoki bank hisobiga o'tkaziladi, shuningdek Abonentning farmoyishi bo'yicha boshqa xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning hisob raqamiga ijobiy balansni o'tkazish;
- 8) aloqa xizmatining uzuksiz ulanishiga cheklarlar o'rnatish;
- 9) abonent va Operator o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar bo'yicha qarzdorlik paydo bo'lgani haqida ma'lumot aniqlangan bo'lsa, Abonent shartnomasi bekor qilish yoki aloqa xizmatlarini taqdim etishni cheklash;
- 10) abonentda Operator bilan tuzilgan bir nechta shartnomaga mavjud bo'lganda, shartnomalarning biri bo'yicha avval ko'rsatilgan aloqa Xizmatlarining haqini to'lash hisobiga, boshqa shartnomalar bo'yicha Abonentning shaxsiy (elektron) hisobidan, oldindan to'langan pul mablag'larini yechib olish;
- 11) operator O'zbekiston Respublikasi qonuniy hujjatlari hamda ushbu shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.
- 12) operatorning web-saytida 15 (o'n besh) kun oldin e'lon qilish shartiga rioya qilgan holda, Mobil elektron to'lov xizmatlari taqdim etilishini to'liq to'xtatish/tugatish yoki ushbu xizmatlarni taqdim etish tartibi va shartlarini bir tomonlama o'zgartirish (bat afsil ma'lumot 2-ilovada).
- 13) operator hodimlarining shaxsiyatini xaqoratlash; Operator hodimlari bilan muloqot chog'ida noma'qul so'zlarni ishlatalish; Operatorning Aloqa markaziga uning faoliyat doirasiga kirmaydigan savollar bilan bir-necha marta murojaat qilish; Operatorning Aloqa markaziga bir-necha marta to'liq sukut saqlagan holda qo'ng'iroqlarni amalga oshirish va Operator tomonidan Operatorning Aloqa markazi hodimlariga ma'nnaviy noqulaylik tug'diradigan va shu kabi Abonentlarga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va Operatorning tartib-qoidalalariga mos ravishda xizmat ko'rsatish imkoniyatini cheklaydigan deb baholangan boshqa harakatlarni amalga oshirganda Abonent uchun Operatorning Aloqa markazi xizmatlaridan foydalanishni cheklash.
- 14) axborot va reklama xabarlarini yuborish, jumladan, uchinchi shaxslardan ham shu turdag'i xabarlarini yuborish.

## **4. ABONENTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

#### 4.1 Abonent quyidagilarga majbur:

- 1) ushbu shartnoma shartlariga rioya qilish;
- 2) faqat O'zbekiston Respublikasi standartlari bo'yicha muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lgan Abonentlik jihozidan foydalanish va uning IMEI kodi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan bo'lsa;
- 3) abonent jihozidan ishlab chiqaruvchining undan foydalanishning amaldagi yo'riqnomaga muvofiq hamda muayyan hududlarda (aeroport, samolyot va boshqa) amal qiladigan maxsus farmoyish va qoidalarni, xalaqit qiladigan,yoki xavfli vaziyat yuzaga kelishi imkonini oldini olish cheklovlarini (tibbiy muassasalar, texnik xizmat ko'rsatish shaxobchalari, yoqilg'i saqlash va qayta ortish hududlari, portlash ishlarini o'tkazish va boshqa joylarni) inobatga olib foydalanish. Operator ko'rsatilgan cheklovlar va talablar haqida Abonentga axborot berishga majbur emas;
- 4) operatordan ishlatilishi uchun O'zbekiston Respublikasi radiochastotalar bo'yicha davlat qo'mitasining maxsus ruxsatnomasini olishni talab qiladigan Abonent jihizi harid qilinganda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining talablariga rioya qilish;
  - 5) abonent to'g'risdagagi ma'lumotlarni identifikasiyalash maqsadida (familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy va/yoki vaqtincha yashash joyi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatning seriyasi va raqami), Abonent Operator xodimiga o'zining amal qiluvchi shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (pasport/ID-karta va doimiy yoki vaqtincha ro'yxatdan o'tgan joyni tasdiqlovchi ma'lumot, yangi na'munadagi haydovchilik guvohnoma, yoki xarbiy xizmatchining pasport ma'lumotlarini va u ro'yxatdan o'tgan joyni tasdiqlaydigan, belgilangan shakldagi ma'lumotnomaga ilova qilingan harbiy bilet/guvohnoma) taqdim etishi shart;
- 6) Shartnoma shartlariga ko'ra hisob-kitoblarning amaldagi tartibi, Tarif rejasi va taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxatiga muvofiq taqdim etiladigan aloqa xizmatlari uchun o'z vaqtida va to'liq haq to'lash;
- 7) xatlarni yetkazish manzili, bank rekvizitlari, amaldagi manzili, pochta manzili va doimiy yoki vaqtincha ro'yxatda turgan joyi, shuningdek boshqa, shartnoma maqsadlarida qo'llaniladigan va shartnomani tuzishda Operator ko'rsatilishi lozim deb talab qilgan hajmdagi ma'lumotlar to'g'risida to'g'ri va ishonchli axborotni berish. Ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgargan taqdirda, shuningdek, shartnoma imzolangan kundagi shaxsini tasdiqlovchi hujjatning (pasport/ID-karta, yangi na'munadagi haydovchilik guvohnoma, yoki xarbiy xizmatchilar uchun harbiy bilet/guvohnoma) ma'lumotlari o'zgargan taqdirda, bunday o'zgarishlar kuchga kirgan kundan boshlab 15 ( o'n besh) kun ichida dolzarb ma'lumotlarni yozma shaklda Operatorga taqdim etish;
- 8) operatorning yozma rozilgisiz Abonentlik raqamidan Abonent jihizi va/yoki aloqa moslamalarining ishdan chiqishiga olib keladigan lotereyalar, ovoz berishlar, tanlovlardan, viktorinalar, reklama, so'rovlar, ommaviy ma'lumot tarqatishlar, «elektron» hisob raqamidan pul mablag'larini toplash, turg'un aloqa tizimida shlyuz o'rnatish, Internet telefoniyasi va boshqa tadbirlarni o'tkazishda foydalanmaslik;
- 9) uchinchi shaxslarga Tarmoqqa ulangan SIM/eSim kartadan foydalanish huquqini bermaslik;
- 10) sim/eSim kartadan uchinchi shaxslarning foydalanishi Abonent tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarilmasligiga sabab bo'lmaydi;
  - 11) Ommaviy ofertani taklif shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar (shu jumladan, tarif rejalariga, tizimga, xizmatlar uchun to'lovlarni to'lash shartlariga, shakllariga va muddatlariga) to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirgan kundan boshlab 15 kun ichida bunday o'zgarishlarni qabul qilishdan to'liq yoki qisman rad etish to'g'risida Operatorga tegishli ravishda xabar berish, agar Operatorga xabar berilmagan bo'lsa, barcha o'zgarishlar abonent tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi;
- 12) frod harakat deb baholangan harakatlarni amalga oshirmsaslik va ularga yo'l qo'ymaslik;
- 13) Abonent O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### 4.2 Abonent quyidagi huquqlarga ega:

- 1) tarmoqdan telefon so'zlashuvlari uchun, O'zbekiston Respublikasi texnika normativlari va standartlari hamda ushbu shartnoma qoidalari muvofiq bo'lgan, Operator tomonidan Tarmoqda ruxsat etilgan texnik usullarda axborot uzatish uchun foydalanish;

- 2) operator va uning Vakolatli ofislari, ularning ish tartibi va Operator ko'rsatadigan aloqa xizmatlari to'plami to'g'risida zarur bo'lgan va to'g'ri axborotni talab qilish;
- 3) operator tomonidan O'zbekiston Respublikasi texnika normativlari va standartlari hamda ushbu shartnomaga muvofiq o'z vaqtida va sifatli xizmatni olish;
- 4) operator roziligidagi Operator belgilagan tartibotga muvofiq Operator belgilagan tartibda va Operatorni xabardor qilgan holda, hisob-kitoblar tartibi, tarif rejasi, taqdim etiladigan xizmatlar to'plamini o'zgartirish;
- 5) o'zining Abonentlik jihozini Tarmoqqa O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va ushbu shartnomada belgilangan shartlar va tartibda ular;
- 6) ushbu shartnomada bekor qilinishi tahmin qilinayotgan sanasidan 5 ish kundan kechiktirmasdan bu haqida Operatorni yozma ravishda xabardor qilib, shartnomani bir taraflama bekor qilish. Bunda Abonent aloqa xizmatlari bo'yicha Operator oldidagi qarzini qoplaydi;
- 7) ushbu shartnomada aytib o'tilgan shartlar Operator tomonidan buzilgan taqdirda, Operatorning aloqa xizmatlaridan voz kechish va shartnomani tahmin qilinayotgan bekor qilish muddatidan kamida 5 ish kuni oldin Operatorni yozma ravishda ogohlantirib bir taraflama bekor qilish. Bunda Abonent aloqa xizmatlari bo'yicha Operator oldidagi qarzini qoplaydi;
- 8) abonent sifatida o'z huquqlarini shaxsan, yoki notarial tasdiqlangan vakolatnoma, yoki qonun asosida ish yurituvchi vakil orqali amalga oshirish. Abonent SIM/eSim -kartasi ulangan Abonent uskunasi bilan bajarilgan Aloqa xizmatlarini olishga qaratilgan harakatlar Abonent nomidan va uning manfaatlarini ko'zlab bajarilgan deb hisoblanadi;
- 9) o'z huquqlari buzilgan hollarda vakolatli davlat organlari yoki sudga murojaat etish;
- 10) abonent O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va ushbu shartnomada ko'zlangan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.
- 11) «Mobil elektron pul» xizmatlaridan foydalanish uchun ushbu Ommaviy ofertaning 2-ilovasida ko'rsatilgan talablarga rioya qilinishi kerak (2-ilova).
- 12) operator tomonidan yuboriladigan axborot va reklama xabarlarini, shu jumladan, uchinchi shaxslardan yuboriladigan xabarlarni qabul qilishni rad etish.

## **5. OPERATOR TOMONIDAN KO'RSATILADIGAN XIZMATLAR UCHUN NARXLAR (TARIF REJALAR)**

- 5.1 Barcha turdag'i xizmatlar va Abonent uskunalariga tariflar, radiotelefon orqali ulanish davomiyligi, tarifikasiya birligi Operator tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va Narxnomada aks ettiriladi (mazkur shartnomaga 1-ilova)
- 5.2 Signali chaqirilgan tomon javobiga tenglashtiriladigan va telefon ulanishi davomiyligi hisoblanishini boshlashga xizmat qiluvchi Abonentlik jihozlariga quyidagilar kiradi:
  - 1) axborot uzatish uskunalar: avtomatik axborot qabul qilish tartibida ishlayotgan modem yoki faksimile asbobi va boshqalar;
  - 2) avtomatik javob berish uskunasi bilan ta'minlangan har qanday abonentlik jihizi;
  - 3) avtomatik raqam aniqlagichi bo'lgan abonentlik jihizi;
  - 4) chaqirilayotgan tomon yo'qligida axborot almashish imkonini ta'minlovchi (yoki imitatsiya qiluvchi) boshqa moslama.
- 5.3 Radiotelefon orqali ulanish xizmatlari uchun to'lov Operator xizmat ko'rsatish vaqtida amal qiluvchi tarif bo'yicha amalga oshiriladi.

## **6. KO'RSATILGAN XIZMATLAR UCHUN ABONENT BILAN HISOB-KITOB QILISH**

- 6.1 Aloqa xizmatlari Abonent tomonidan operatsiyalarni amalga oshirish sanasiga amal qiluvchi Narxnavo varag'ida (1-Ilova) belgilangan miqdordagi oldindan to'lov kiritilganidan keyin amalga oshiriladi.
- 6.2 Operator xizmatlari uchun tariflar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida o'rnatiladi. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun barcha to'lovlar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida hisoblanadi. Aloqa xizmatlari narxiga aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i ham kiradi.

- 6.3 To'lov ma'lum bir nominaldagi to'lov Kartani sotib olish va uni faollashtirish orqali unga berilgan yo'rinqomaga muvofiq amalga oshiriladi, yoki Operator ofisida yoki vakolatli idorada, to'lovlarni qabul qilish bo'yicha vakolatli to'lov agenti orqali yoki o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish terminallari (infokiosk) orqali, bankdan tashqari elektron to'lovlar tizimlarining naqd pulsiz hisob-kitoblari orqali naqd pulda to'lov amalga oshirilishi mumkin, bunda Abonentning "elektron" hisobvarag'iga to'lov kartasining nominal qiymatiga yoki so'm ekvivalentida kiritilgan to'lov summasiga teng bo'lgan aloqa xizmatlarini olish huquqlarining qiymati ekvivalenti o'tkaziladi.
- 6.4 To'lov Abonentning ekspress to'lov kartasini aktivlashtirishning to'liq ekvivalenti hisoblanadi. To'lovni amalga oshirganda, Abonent pul mablag'larini Operator yoki Operator vakolatlagan shaxsga to'laydi, hamda Abonentning aloqa xizmatlarini olishga kelib tushgan shu pul summasiga ekvivalent bo'lgan huquqlar hajmi, Abonentning "Elektron" hisobvarag'ida so'm ekvivalentida aks ettiriladi, bu haqda Abonentga kassa mashinasi cheki ko'rinishidagi tasdiqlov hujjati berilishi shart. Kassa mashinasi cheki Abonentning shu to'lov bo'yicha nizoli savollari va da'volarini yechishga zarur bo'lgan hujjat hisoblanadi. Bunday to'lov usuliga ushbu shartnomaning ekspress to'lov Kartasi yordamida shaxsiy hisobvaraqnini to'ldirishga oid barcha Qoidalari taalluqli bo'ladi.
- 6.5 To'lov karta faollashtirilganda yoki naqd pulsiz to'lov kiritilganda, abonent faollashtirilgan kartaning nominal qiymati yoki kiritilgan naqd to'lov miqdori va aloqa xizmatlari tariflaridan kelib chiqqan holda belgilanadigan hajmda aloqa xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Shartnoma tuzishning dastlabki bosqichida tanlangan tarif rejasi yoki Operatorning boshqa xizmatlari uchun qisman to'lov amalga oshirilgan taqdirda, Abonent ro'yxatdan o'tgan vaqtidan boshlab tanlangan tarif rejasi va Operatorning xizmatlari uchun to'liq oldindan to'lovni amalga oshirish uchun 48 soat vaqt beriladi. Ko'rsatilgan muddatda to'liq oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, Operator Abonent tomonidan avval to'langan barcha summani hisobdan chiqarish huquqiga ega bo'ladi va pul mablag'lari faqat Abonentning yozma so'roviga binoan ushbu Shartnomaning 2.5. bandida ko'rsatilgan tartibda qaytarilishi mumkin.
- 6.6 Xizmatlardan foydalanilgan sari Abonentning "elektron" hisobidan qabul qilingan to'lov tarifiga asosan tegishli summalar avtomatik ravishda yechib olinadi.
- 6.7 Elektron hisobdagagi sarflanmagan mablag'ning qoldig'i haqidagi axborot Abonentga Operator belgilagan usulda, bepul taqdim etiladi.
- 6.8 Aloqa xizmatlaridan kelgusida foydalanish uchun Abonent tomonidan oldindan to'lov ko'rinishida kiritilgan "elektron" hisob raqamidagi to'lov mablag'i to'liq sarf qilinganida, Operator Abonentga aloqa Xizmatlari ko'rsatishni cheklash, shuningdek tugallanmagan suhabatni uzish va uni blokirovka qilingan holatiga o'tkazish huquqiga ega. Operator ma'lum bir vaqt oralig'ida aloqa xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini berish, hatto shaxsiy "elektron" hisob raqamidagi mablag'ning noldan kichik qiymatga kamayishida, aloqa xizmatlarini ko'rsatishni to'xtatmaslik huquqiga ega. Oxirgi Tranzaktsiya sanasidan keyin 90 kun mobaynida Abonentning Tranzaktsiya amalga oshirmsaligi- bu Abonentning shartnomanini bajarilishini bir tomonlama rad qilishi hisoblanadi.
- 6.9 Shaxsiy hisobvaraqdagi Shartli summa tugamagan va ketma-ket 90 kun mobaynida Abonentning "elektron" hisobidan hech qanday Tranzaktsiya amalga oshirilmagan bo'lsa, Operator Abonentning "elektron" hisobidan Abonent raqamiga xizmat ko'rsatilganligi uchun pul mablag'larini yechib olishga haqli, bu haqida abonentga mazkur xizmat ulanishi haqida ("Raqamni saqlab qolish" xizmatini yoqib), oldindan SMS xabar beriladi .. Tranzaktsiya amalga oshirilganda yoki "elektron" hisobdagagi shartli summa butunlay tugagan holda xizmat to'xtatiladi va abonent raqamiga xizmat ko'rsatish to'xtatiladi.
- 6.10 Abonentning elektron hisobidan u foydalangan hajmdagi aloqa xizmatlari miqdoridagi summani shu zahoti hisobdan yechish imkon bo'lmagan hollarda – masalan, Abonent rouming holatida bo'lganida va boshqa hollarda, shuningdek bu tarif rejasi va xizmat ko'rsatish shartlarida nazarda tutilgan hollarda, Abonentning elektron hisobidagi balans manfiy bo'lib qolishi mumkin, bu Abonentning Operator oldidagi qarzdorligini bildiradi va Abonent

- tomonidan Operator oldida shubhasiz deb e'tirof etiladi. Bu holda aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'xtatilishi mumkin.
- 6.11 Agar Abonent o'zining elektron hisobining balansni ijobiy korsatkichigacha to'ldirmayotgan bo'lsa, Operator Abonentga mavjud bo'lgan qarzdorlikni belgilangan muddatda to'lash talabi haqida, yozma xabarnomani (e'tirozni) yo'llashga haqli. Abonent xabarnomada (e'tirozda) ko'rsatigan kundan kechiktirmay mavjud bo'lgan qarzdorlikni qoplashi shart. Agar Abonent ko'rsatilgan aloqa xizmatlari uchun qarzni qoplash bo'yicha majburiyatni mustaqil ravishda bajarmasa, Operator bajarilmagan majburiyatlar summasidan qarzni majburiy undirish chog'ida kechiktirilgan har kun uchun 0,2% hajmdagi penya hisoblashga haqli.
- 6.12 Operator Abonentning elektron hisob'idagi (balansidagi) pul mablag'lari miqdoriga ko'ra (cheklov miqdori) Abonentga taqdim etiladigan xizmatlar hajmini qo'shimcha xabarlashsiz cheklashga haqli. Cheklar miqdorlari Operatorning Narx-navo varaqlarida keltirilgan.
- 6.13 Operator tomonidan Abonentning ma'lum bo'lgan manziliga yo'llangan barcha hisobvaraq va xabarnomalar tegishli tarzda yo'llangan hisoblanadi, ular olinmagan taqdirda hech qanday e'tirozlar Operator tomonidan qabul qilinmaydi.
- 6.14 Operator tomonidan Abonentga bir shaxsiy (elektron) hisob raqamga, yoki alohida shaxsiy (elektron) hisob raqamlarga biriktirilgan qo'shimcha Abonent raqamlari taqdim etilganda, Abonentga SIM/eSim -kartalarni Operatorning aloqa tarmog'iga ulanish to'lovini, avans va Abonent tomonidan tanlangan xizmatlar ro'yxatiga, hajmiga va Tarif rejasiga muvofiq boshqa to'lovlarni o'z ichiga olgan hisob taqdim etiladi. Operator tegishli summalar tushgunga qadar Abonentga Xizmatlarni taqdim etmaslik huquqiga ega.
- 6.15 Mazkur Abonent shartnomasi bekor qilingan holda, Abonentning elektron hisobida qolgan (sarflanmagan) summa O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida mazkur shartnomaning 2.5 bandi tartibida qaytarib beriladi.
- 6.16 Ushbu Abonent shartnomasi bekor qilingan taqdirda, Cashback bo'yicha qolgan (sarflanmagan) mablag qaytarilmaydi.

## **7. ABONENTNING OPERATORGA BO'LGAN E'TIROZLARINI KO'RIB CHIQISH TARTIBI**

- 7.1 Aloqa xizmatlari bajarilmaganda yoki tegishli tarzda bajarilmaganida Abonent Operatorga e'tiroz bildiradi.
- 7.2 E'tirozlar yozma shaklda bildiriladii va Operator tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi.
- 7.3 Operatordan Abonent sotib olgan Abonent jihozining sifatiga bo'lgan e'tirozlar Narx-navo varag'ida (Price-list) ko'rsatilgan muddat ichida topshirilishi kerak (mazkur shartnomaga 1-Ilova).
- 7.4 Xizmatlar ko'rsatilmaganligi, vaqtida ko'rsatilmaganligi yoki sifatsiz ko'rsatilganligi bilan bog'liq e'tirozlar bunday xizmat ko'rsatilgan kundan boshlab 6 oy davomida qabul qilinadi.
- 7.5 E'tirozlarga ushbu ommaviy ofertaning 7.2 bandida ko'rsatilgan tartibga muvofiq Operator tomonidan ro'yxatga olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun ichida yozma javoblar berilishi shart va / yoki bir oy ichida Abonentni yozma ravishda ogohlantirish bilan, agar ma'lumotlarni qo'shimcha o'rghanish zarur bo'lsa.
- 7.6 Aloqa xizmatlaridan Tarmoqqa ruxsatsiz ularish orqali uchinchi shaxslarning foydalanishi natijasida nizolar yuzaga kelganda, amalga oshirilgan telefon so'zlashuvlarning mansubligini aniqlash maqsadida belgilangan tartibda texnikaviy surishtiruv o'tkazilishi lozim.

## **8. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

8.1 Operator Abonent oldida shartnoma majburiyatlarini bajarmagani, yoki tegishli ravishda bajarmagani, e'lon qilingan xizmat ko'rsatilishining sifati, bu xizmatlarni ko'rsatish muddatlarini va ularni bartaraf qilish muddatlarini buzganligi, aloqa xizmatlari va bu xizmatlarning bajaruvchilari haqidagi noto'g'ri axborot uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki mazkur shartnoma bilan ko'zda tutilgan tartib va o'lchamlarda javobgardir.

8.2 Abonentning SIM/eSim kartasining yoqotishi, o'g'irlanishi, yoki boshqa hollarda mavjud emasligi holatlarda, Abonent Operatorning SIM/eSim kartadan foydalanish bilan bo'g'liq xizmatlari uchun, Operatorning Abonentdan mazkur SIM/eSim kartaga xizmat ko'rsatishni to'xtatish haqidagi yozma arizasini qabul qilish paytiga qadar to'lashga javobgardir.

8.3 . Operator Abonent oldida bilvosita zararlar va boy berilgan foyda uchun javobgar bo'lmaydi.

8.4 . Operator Abonentning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanish tartibini buzganligi uchun amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan holda javobgar bo'ladi.

8.5 Abonent quyidagi hollarda O'z R. qonunchiligiga binoan administrativ va jinoiy javobgarlikka tortiladi:

- 1) o'rnatilgan himoya tizimlarini chetlab o'tgan holda telekomunikasiya tarmog'idan foydalanish va xalqaro trafikni o'tkazish maqsadida telekomunikasiya tarmog'idan qonunga xilof ravishda (ruhsatsiz) foydalanish, shuningdek mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan mahsus dasturiy yoki apparat vositalarini qonunga xilof ravishda (ruhsatsiz) saqlash va ularning faoliyat ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratish;
- 2) kompyuter tizimidan, shuningdek telekommunikasiya tarmoqlaridan qonunga xilof ravishda (ruhsatsiz) foydalanish uchun mahsus vositalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash, yoxud o'tkazish va tarqatish;
- 3) shartnomaning ushbu bo'limida ko'rsatilgan maqsadlar uchun SIM/eSim -kartaning uchinchi shaxslarga berilishi.

## 9. FORS-MAJOR

9.1 Ushbu shartnoma maqsadlarida "Fors-major" deganda, Fors-major holati to'g'risida e'lon qilgan Tomon barcha oqilona hatti-harakatlariga qaramay, bu hodisa xoh O'zbekiston Respublikasida, xoh undan tashqarida sodir bo'lismidan qat'iy nazar, oldini olib bo'lmaydigan, yengilmas va cheklab bo'lmaydigan hodisalar, shu jumladan va shu bilan cheklanib qolmay, urush, ommaviy tartibsizliklar, ish tashlashlar, davlat hokimiyati organlarining qarorlari, embargo, yong'inlar, portlashlar, suv toshqinlari va boshqa tabiiy ofatlar tushuniladi; biroq, pul yo'qligi, yoki yetishmasligi Fors-major holati bo'lib hisoblanmaydi.

9.2 Har qaysi Fors-major holati yuzaga kelganda, shu Fors-major holati mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishga ta'sir ko'rsatadigan (pul to'lovi holatidan tashqari) Tomon ("Jabrlangan Tomon") ikkinchi Tomonning ziyoni va zararini qisqartirish va Jabrlangan Tomonning mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini tiklash uchun barcha zarur choralarни qo'llash, zudlik bilan ikkinchi Tomonni mavjud bo'lgan holatlar to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi. Fors-major to'g'risidagi xabarnomada:

- (a) Fors-major hodisasi ko'rsatilgan,
- (b) uning Jabrlangan Tomon o'z majburiyatlarini bajarish imkoniyatlariga ko'rsatadigan ta'sirini oqilona va batafsil bayon etilgan,
- (c) shu Tomondan ikkinchi Tomon ziyon yoki zararlarini qisqartirishga hamda Jabrlangan Tomon mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyati tiklanishiga qaratib qo'llanilayotgan choralar bayon etilgan bo'lishi kerak.

Yuzaga kelgan favquloddagi holatlar to'g'risda xabarlamaslik yoki vaqtida xabarlamaslik ikkinchi Tomonni shartnoma majburiyatlarini bajarilmasligidagi javobgarlikdan ozod qilish uchun shu holatlardan birontasini asos sifatida ko'rsatish huquqidан mahrum qiladi.

9.3 Agar Fors-major tufayli Tomonlarning biri mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishini kechiktirsa, bunday kechiktirish muddatlarini ushbu shartnomada nazarda tutilgan

muddatlarni hisoblashda inobatga olinmaydi, va shu Tomon Fors-major hodisasi sababli bajarmaslik doirasidagi shartnomaga bo'yicha olingan majburiyatlar kechiktirib bajarilganligi uchun oqlanadi, biroq shu sharti bilanki, Fors-major tufayli Tomonlardan birontasi Fors-major to'g'risidagi Xabarnoma jo'natilganidan keyin 60 (oltmish) kun davomida o'zining biror majburiyatini bajara olmasa, tomonlar zudlik bilan ushbu Fors-major holati oqibatlarini aniqlash maqsadida maslahatlashib, Tomonlar ixtiyoriga ko'ra vaziyatga qarab tegishli zarur choralarni qo'llashi lozim. Agar Tomonlar Fors-major to'g'risidagi Xabarnoma topshirilgan kundan boshlab 90 (to'qson) kun mobaynida o'zaro maqbul choralarni ko'rishga kelisha olmasalar, Tomonlarning har biri ushbu shartnomani bekor qilishi mumkin.

## 10. SHARTNOMA MUDDATI

- 10.1 Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati Abonentlar - Jismoniy shaxslar uchun Oferta qabul qilingan kundan boshlab (2.1. band) Abonent Shartnoma shaklini imzolagan kundan boshlab belgilanadi va amal qiladi:

- Abonent tanlangan Tarif rejasi va Operator xizmatlari uchun oldindan to'lovini 48 soat ichida amalga oshirishi. Agar Abonent belgilangan muddatda to'lov operatsiyasini bajarmasa, Shartnoma tuzilmagan hisoblanadi.

- agar Abonent Operatorning tanlangan Tarif rejasi va boshqa xizmatlari uchun haq to'lash bo'yicha bиринчи operatsiyani amalga oshirgan bo'lsa, shartnoma tuzilgan hisoblanadi va Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaguncha yoki uni bekor qilgunga qadar amal qiladi.

## 11. BOSHQA SHARTLAR

- 11.1 Aloqa sifatining yomonlashishi, yoki uzilishi radioto'lqinlarning tabiiy tarqalishi yoki ustma-ust kelishi, Abonent binolar yaqinida yoki ichida, tunnellar ichida, yerto'lalar yoki boshqa yerosti inshootlarda bo'lganda; joylardagi rel'ef yoki qurilishning xususiyatlariga ko'ra; mahalliy simli telefon tarmoq operatorlari hamda xalqaro va sharhralararo aloqa operatorlari jihozlarining texnik xususiyatlari va holati; meteorologiya sharoitlari va Operator ta'sir ko'rsatishi va oldini olishining imkonni bo'lмаган boshqa sabablar oqibatida yuzaga kelsa, Operator bunday aloqa sifati yomonlashishi yoki uning uzilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

- 11.2 Abonentga taqdim etiladigan radiotelefon aloqa tarmoqning konstruktiv xususiyatlariga ko'ra operator vakolatiga kirmaydigan mahalliy simli telefon tarmoqlar operatorlari jihozlari, hamda xalqaro va sharhralararo aloqa operatorlari jihozlarining sifatiga bog'liqdir.

- 11.3 Abonent buyurtmasi asosida uchinchi shaxslarning Operator tarmog'i orqali jo'natiladigan kontent taqdim etilmasligi, yoki vaqtida taqdim etilmasligi, uning mazmuni va sifati uchun Operator javob bermaydi.

- 11.4 Aloqa xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq masalalar yuzasidan barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida amaldagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, hamda ushbu shartnoma shartlariga muvofiq hal qilinadi. Tomonlar o'zaro kelishuvga binoan erishilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi sud organlarida ko'rib chiqiladi.

- 11.5 Shartnomani jismoniy shaxs bo'lgan Abonentdan boshqa jismoniy shaxs nomiga qayta rasmiylashtirish bevosita har ikki shaxs huzurida va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari (pasportlar/ID-kartalar, yangi na'munadagi haydovchilik guvohnomalari, yoki xarbiy xizmatchilar uchun harbiy bilet/guvohnomalari) taqdim etilganda amalga oshiriladi.

- 11.6 Abonent Operator tomonidan ushbu Ofertaning 3.1 va 3.2 bandida nazarda tutilgan tartibda, tarqatilgan tariflarning o'zgarishi to'g'risidagi axborotni. hamda u hisobvaraqlarni Operatorga bog'liq bo'lмаган sabablarga ko'ra olmagan hollarda, ular olinmagani uchun Operator javobgar bo'lmaydi va bu boradagi e'tirozlarni qabul qilmaydi.

- 11.7 Operator tomonidan mazkur shartnoma shartlariga ko'ra ko'rsatiladigan aloqa xizmatlari to'g'risidagi qo'shimcha axborotlar bilan Operator ofislardida, Operator tijorat vakillarining

Vakolatli ofisida, axborot-ma'lumot xizmati tizimida tanishish mumkin, shuningdek ular Operator tomonidan ommaviy axborot vositalarida, hamda Operatorning rasmiy WEB-saytida e'lon qilinadi.

- 11.8 Mazkur shartnomani bajarishga bog'liq yoki undan kelib chiqadigan barcha axborot va xabarlarni tomonlar bir-biriga shartnomada ko'rsatilgan xat-xabar yetkazish manzillariga jo'natishi kerak .
- 11.9 Mazkur Oferta va uning ajralmas qismi bo'lgan barcha ilovalari va bitimlari Rus tilida tuzilgan va O'zbek tiliga tarjima qilingan. Ushbu Ofertaning biror qoidasini talqin qilishda nizoli vaziyat yuzaga kelganda, Rus tilidagi talqini ustunlik kuchiga ega bo'ladi.

## **12. REKVIZITLAR VA BOG'LANISH UCHUN MA'LUMOTLAR**

OOO "Unitel", Manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh., Mirobod tumani, ko'ch.  
Buxoro, 1.

h/r: 20208000300971325001

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki AJ Toshkent shahar bosh boshqarmasi  
Sebzor amaliyot BXMMFO: 00450

STIR: 201838002

IFUT 61200

0611 - mobil telefondan

(90) 185-00-55 - shahar telefonidan

Elektron pochta: 0611@beeline.uz

**«Unitel» MChJ telekommunikatsiya  
xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Ommaviy  
ofertaga 2-ilova**

### **Mobil elektron to'lov xizmatlarini taqdim etish qoidalari (keyingi matnlarda - Qoidalari)**

Ushbu Qoidalari Abonent tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq onlayn shakldagi fuqarolik-huquqiy bitimlar bo'yicha to'lovlarni va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish, shu jumladan, Operatorning axborot tizimi va tarmog'i orqali Abonent tomonidan Elektron pullar tizimining operatori yoki Uchinchi shaxslar xizmatidan foydalangan holda Abonentning elektron hamyonini to'ldirish va Elektron pullar bilan to'lovlarni amalga oshirish jarayonidagi Operator va Abonentning munosabatlarini tartibga soladi.

#### **1. Ushbu Qoidalarda qo'llaniladigan atamalar va ta'riflar.**

1.1. **Avtorizatsiya** - Abonentning Elektron pullar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini tekshirish (tasdiqlash) jarayoni.

1.2. **Axborot tizimi** - Elektron to'lov tizimining operatoriga axborotni qayta ishlash tizimi va Elektron pul tizimi ishtirokchilari o'rtasida axborot uzatishni, tegishli tashkiliy va texnik resurslar, shuningdek, Abonent ko'rsatmalarining o'tkazilishini ta'minlovchi tizim.

1.3. **Yetkazib beruvchi** - Elektron pullardan foydalangan holda to'lovnini amalga oshiradigan Abonentlarga xizmatlar, ishlari yoki tovarlarni sotish bilan shug'ullanadigan shaxs.

1.4. **To'lov** - Yetkazib beruvchi va Abonent o'rtasida pul mablag'larini to'lov vositalaridan foydalangan holda o'tkazish, shu jumladan Elektron pullardan foydalangan holda tuzilgan fuqarolik-huquqiy bitimlar bo'yicha Abonent tomonidan tovarlar (xizmatlar, ishlari) uchinchi shaxslar (yetkazib beruvchilar) xizmatlari uchun Elektron pullar tizimi orqali to'lov/ayrboshlash operatsiyasi.

1.5. **Limit** – bitta operatsiyaning maksimal miqdori, Elektron pul egasi tomonidan amalga oshirilgan muayyan davr uchun bitimlar soni.

1.6. **Mobil elektron to'lov** – Elektron pullar tizimi operatorining Elektron pullar tizimida Abonentga Elektron pullar sotish bo'yicha xizmatlari.

1.7. **Ko'rsatma** – Abonentning ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan usullar bilan Abonent tomonidan taqdim etiladigan Elektron pullar bilan operatsiyalarni amalga oshirish to'g'risida Abonentning elektron hamyonini va Elektron pullar tizimini to'ldirish to'g'risida operator manziliga bir vaqtning o'zida berilgan buyurtma.

1.8. **Individual to'lov raqami** - Abonent Elektron pullar sotib olganidan so'ng, Elektron pullar tizimining operatori tomonidan Abonentga taqdim etiladigan raqam bo'lib, u orqali Abonent Elektron pullar sotib olinganlikni tasdiqlovchi hujjatni olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1.9. **Elektron pullar tizimining operatori** – qonunchilikka muvofiq to'lov tashkiloti yoki to'lov agenti sifatida elektron to'lov tizimining ishlashini ta'minlaydigan bank yoki boshqa yuridik shaxs (keyingi matnlarda - Operator). Operator Elektron pullar yordamida to'lovlarni, Elektron pullarni olish va jismoniy shaxslarga realizatsiya qilish va boshqa ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshiradi.

1.10. **Elektron pullar tizimi** – Elektron pullar bilan to'lovlar va boshqa ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirishni ta'minlaydigan Elektron pullar tizimi operatorining dasturiy-texnik vositalari, hujjatlari va tashkiliy-texnik faoliyati majmui.

1.11. **Elektron pullar tizimi operatorining web-sayti** - Internet tarmog'idagi elektron to'lov tizimi operatorining axborot resursidir (tegishli ma'lumotlar Kompaniyaning [www.beeline.uz](http://www.beeline.uz) rasmiy saytida joylashtiriladi).

1.12. **Elektron pullar tizimining ishlash qoidalari** – Elektron pullarni chiqarish, realizatsiya qilish, sotib olish, qoplash, shuningdek, Elektron pullardan foydalangan holda Elektron pullar tizimida operatsiyalarni amalga oshirishni nazarda tutadigan va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, normativ-huquqiy hujjatlari hamda Operator/Elektron pullar tizimining operatori tomonidan belgilanadigan tartib-qoidalari, Internet tarmog'ida tegishli [https://www.wooppay.uz/files/privacy\\_policy.pdf](https://www.wooppay.uz/files/privacy_policy.pdf) saytida joylashtirilgan.

1.13. **Elektron pullar** – Elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda Elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatları.

1.14. **Elektron hamyon** – Elektron pullar tizimining dasturiy ta'minoti, mikroprotsessор (chip), Elektron pullar saqlanadigan va ulardan foydalanish imkonini beradigan dasturiy-texnik qurilma.

1.15. **Elektron hamyonni to'ldirish** – Abonent tomonidan elektron to'lov tizimining operatoridan Elektron pullarni sotib olish va ularni Abonentning ko'rsatmasi asosida amalga oshiriladigan elektron hamyonga o'tkazish operatsiyasi.

wbilan tuzilgan bitmga muvofiq, Elektron pullar tizimi doirasida Elektron pullarni chiqarish, uzatish, qabul qilish, ulardan foydalanish, sotib olish, sotish yoki to'lash huquqi yoki majburiyati mavjud bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

1.17. **Elektron pullarni qoplash** – emitent tomonidan o'zi chiqargan, Elektron pullar egasi taqdim etgan Elektron pullarni ularning nominal qiymatiga teng pul mablag'lari summasiga almashtirish operatsiyasining amalga oshirilishini nazarda tutuvchi to'lov xizmati.

1.18. **Elektron hamyonni bloklash** – elektron hamyonga kirishni va Elektron pullardan foydalanishni taqilash.

1.19. **Emitent** – O'zbekiston Respublikasining “To'lovlар va to'lov tizimlari to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “O'zbekiston Respublikasi hududida Elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari” (Adliya vazirligi tomonidan 29.04.2020 yilda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3231) va boshqa sohaviy normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq Elektron pullar tizimida Elektron pullarni chiqarish va qoplashni amalga oshiruvchi tijorat banki.

Ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan atamalar va ta'riflar ma'nosi/mazmuni, Ommaviy ofertada nazarda tutilgan atamalar va ta'riflar ma'nosi/mazmuniga muvofiq talqin qilinadi.

## 2. Umumiy qoidalari

2.1. Ushbu Qoidalalar shartlariga muvofiq, Operator o'z axborot tizimi va tarmog'i orqali Abonentning Emitent tomonidan belgilangan shartlar doirasida Elektron pullar tizimining operatori tomonidan Abonentga Elektron pullarni (keyingi o'rinnlarda – Elektron pullar summasini to'ldirish) sotishni amalga oshirish, Abonentning elektron hamyonini to'ldirish, Elektron pullar bilan operatsiyalarni amalga oshirish to'g'risida ma'lumot berish, elektron to'lovlarni amalga oshirish yoki Elektron pullar bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

2.2. Elektron pullar tizimining operatori tomonidan Abonentga Elektron pullarni realizatsiya qilish, Abonentlarga yetkazib beruvchining xizmatlari, tovarlari, ish haqini to'lash va Elektron pullar tizimida Elektron pullar bilan boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati beriladi.

Elektron pullar tizimining operatori elektron pul tizimidagi Abonentga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- elektron pullarni realizatsiya qilish;
- elektron pullarni ayirboshlash;
- tovarlar va ishlarni uchun to'lovlarni amalga oshirish;
- boshqa operatsiyalarini bajarish.

2.2.1. Axborot tizimida tegishli ko'rsatmalarni yo'naltirish orqali Abonent Elektron pullar tizimining operatoridan Elektron pullar summasini oladi va ulardan foydalangan holda to'lovnini yetkazib beruvchi foydasiga yoki Emitentning Elektron pullar shartlari asosida boshqa operatsiyalarini amalga oshiradi. Ko'rsatmalar Operator/Elektron pullar tizimi operatorining axborot tizimidan foydalangan holda Abonentlarga ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan usullar bilan taqdim etiladi.

2.3. Elektron pulni sotib olish va boshqa elektron to'lov operatsiyalarini bajarish bo'yicha elektron pul tizimi Operatori bilan hisob-kitoblar Abonent tomonidan oldindan hisob-kitob qilish tartibi bilan abonent raqamlari bo'yicha Ommaviy shartnoma asosida aloqa xizmatlari uchun avans sifatida kiritilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

2.3.1. Abonent tomonidan Elektron pullar sotib olinganda Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamidan tegishli mablag'lar yechib olinganligi to'g'risida tegishli ma'lumotlar Operatorning telekommunikatsiya xizmatlari bo'yicha hisob-kitob (billing) tizimidagi ma'lumotlar (detalizatsiya) da batafsil aks ettiriladi.

2.4. Elektron pullar bilan operatsiyalar Abonent tomonidan Elektron pullar tizimining ishslash qoidalarida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda amalga oshiriladi.

2.5. Ushbu Qoidalalar shartlarini qabul qilish (akseptlash) orqali Abonent o'zining roziliginini tasdiqlaydi va Elektron pullar tizimining ishslash qoidalariga to'liq rozi bo'ladi

### **3. Abonentni ushbu Qoidalarga qo'shib olish tartibi**

3.1. Abonent ushbu Qoidalarga qo'shib olinishi, Abonentni ushbu Qoidalarning shartlari va elektron pul tizimining tegishli Qoidalari bilan tanishganligi va ularga roziliginini anglatadi.

3.2. Abonent ushbu Qoidalarga qo'shib olinishi va ularning kuchga kirishi payti Abonent tomonidan quyidagi harakatlardan birini amalga oshirish vaqtin hisoblanadi:

3.2.1. tegishli yo'riqnomada va (yoki) elektron pul tizimining tegishli Qoidalarda ko'rsatilgan 5505 raqamiga va boshqa raqamlarga SMS yuborish orqali;

3.2.2. Ushbu Qoidalalar va elektron pul tizimi qoidalarining shartlari bilan rozilikni tasdiqlash, matn yoki ushbu Qoidalarning matniga va web-resurslardagi elektron pul tizimining tegishli qoidalariga yoki Abonent qurilmalari uchun mo'ljallangan boshqa ilovalarga havola yonidagi tegishli qatorda belgi (tasdiq belgisi qo'yish) ko'rinishida ifodalangan;

3.2.3. Tegishli qatorlarda 5505 jo'natuvchidan sms orqali olingen bir martalik tasdiqlash kodini va tegishli ko'rsatmalarda va (yoki) elektron pul tizimining tegishli qoidalarida ko'rsatilgan boshqa raqamlarni kiritish orqali;

3.2.4. Operator bilan ushbu Qoidalarning joriy versiyasi va elektron pul tizimining tegishli Qoidalari joylashtirilgan Internet tarmog'idagi manzilini ko'rsatgan holda Qoidalarga va (yoki) Elektron pul mablag'larining tegishli Qoidalariq havolani o'z ichiga olgan boshqa shartnomalarni imzolash.

3.3. Ushbu Qoidalarga qo'shilish orqali Abonent o'z roziliginini bildiradi va Operatorga, tegishli elektron pul tizimining Operatoriga mobil moliyaviy xizmatlarni taqdim etish uchun shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va qayta ishslashga ruxsat beradi, Operator tomonidan Abonentning Operatordan shaxsiy ma'lumotlarining elektron pulining tegishli tizimini olishga rozilik beradi, shuningdek Abonentning shaxsiy ma'lumotlarini Operatorga, emitentga va tegishli elektron pul tizimining boshqa ishtirokchilariga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari talablariga muvofiq elektron pul tizimi Operatori tomonidan elektron pul egasi sifatida Abonentni masofadan identifikatsiyalashni amalga oshirish maqsadida kelgusida qayta ishslash uchun zarur. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishslash shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, saqlash, o'zgartirish, qo'shimcha qilish, foydalanish, tarqatish, shaxssizlashtirish, bloklash va yo'q qilish, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni emitentga yoki boshqa uchinchi shaxslarga ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan va (yoki) elektron pul xizmatlari tizimining tegishli Qoidalari bilan ta'minlash jarayonida uzatish kabi shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq harakatlar (operatsiyalar) deb tushuniladi. Operator uchinchi shaxslar bilan tuzilgan maxfiylik to'g'risidagi bitm asosida abonentlarning shaxsiy ma'lumotlarini faqat ushbu Qoidalarda va (yoki) elektron pul tizimining tegishli qoidalarida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish maqsadida qayta ishslashga topshirish huquqiga ega.

- 3.4. Abonentga quyidagi hollarda elektron pul tizimidan foydalanish va elektron pulni olish imkoniyati taqdim etiladi:
- 3.4.1. Agar Abonent aloqa xizmatlari yoki Operator tomonidan ko'rsatiladigan boshqa xizmatlar uchun qarzdar bo'lmasa;
  - 3.4.2. Abonent qurilmasi bloklanmagan bo'lsa;
  - 3.4.3. Shaxsiy (elektron) hisob balansidagi pul miqdori Mobil elektron to'lov xizmatlari uchun yetarli bo'lganda;
  - 3.4.4. Elektron pul bilan operatsiyalar miqdori O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan limitlardan oshmaganida;
  - 3.4.5. Abonent tomonidan kiritilgan ma'lumotlar to'g'ri bo'lganda;
  - 3.4.6. Abonent raqami jismoni shaxs/yakka tartibdagi tadbirkor nomiga ro'yxatga olingan bo'lganda;
  - 3.4.7. Abonent raqami Rouming rejimida bo'limganda (faqat «Unitel» MChJ abonentlari uchun).
- 3.5. Operator/Elektron to'lov tizimining operatori, Abonent ushbu bandda nazarda tutilgan shartlar talablariga javob berganda yoki qonun hujjatlari talablariga zid bo'limgan boshqa asoslarda ham Abonentga Mobil elektron to'lov xizmatlari ko'rsatilishini rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

#### **4. Operator va Abonentning huquq va majburiyatları.**

- 4.1. Operatorning majburiyatları:
- 4.1.1. Operatorning web-saytida ma'lumotlarni joylashtirish orqali Abonentlarga ushbu Qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi haqida 15 (o'n besh) kun oldin xabardor qilish.
  - 4.1.2. Abonent haqidagi shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash. Bunday holda, Abonent o'zining shaxsiy ma'lumotlarini (harakati va / yoki harakatsizligi tufayli) ochib beradi. Shaxsiy ma'lumotlar yo'qotilishi va / yoki ko'rilgan zarar munosabati bilan Abonent tomonidan yetkazilgan har qanday zarar uchun Operator javobgar bo'lmaydi.
- 4.2. Operatorning huquqlari:
- 4.2.1. Operatorning web-saytida 15 (o'n besh) kun oldin e'lon qilish shartiga rioya qilgan holda, Mobil elektron to'lov xizmatlari taqdim etilishini to'liq to'xtatish/tugatish yoki ushbu xizmatlarni taqdim etish tartibi va shartlarini bir tomonlama o'zgartirish.
  - 4.2.2. Operator/Elektron pullar tizimining operatori Abonent tomonidan ko'rsatmalar berish usullarini bir tomonlama o'zgartirish va/yoki to'ldirish.
  - 4.2.3. Abonent tomonidan ushbu Qoidalarning shartlari buzilganligi yoki Abonent fribgarlik yoki boshqa noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etsa (shu jumladan, Abonent guman qilinayotgan yoki ayblanadigan hollarda) Abonentni ushbu haqda oldindan ogohlantirmsadan, Abonentga Mobil elektron to'lov xizmatlarini taqdim etishdan bosh tortish yoki ularni to'xtatish.
- 4.3. Abonentning majburiyatları:
- 4.3.1. Ushbu Qoidalarda talab va majburiyatlarni to'liq bajarish nazarda tutilgan.
  - 4.3.2. Mobil elektron to'lov xizmatlari doirasida taqdim etilgan qo'shimcha xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish. Bunda, ushbu xizmatlar uchun to'lov majburiyati Abonent qurilmasi yoki Abonent raqami Abonent tomonidan uchinchi shaxsga foydalanishga topshirilganda ham saqlanib qoladi.
  - 4.3.3. Mobil elektron to'lov xizmatlaridan foydalanishni ta'minlovchi Abonent qurilmasi yoki parol va/yoki SIM/eSim -karta yo'qolgan taqdirda, ushbu haqda Operatorga/Elektron pullar tizimining operatoriga zudlik bilan xabar berish va Abonent raqamini 0611 yoki +998901850055 telefon raqamlari orqali bloklash uchun murojaat qilish yoki Operatorning web-saytida ko'rsatilgan manzil bo'yicha xizmat ko'rsatish ofisiga murojaat qilish.
- 4.4. Abonentning Huquqlari:
- 4.4.1. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan talablarga rioya etish sharti bilan, «Mobil elektron pullar» xizmatlaridan foydalanish.
  - 4.4.2. Elektron pullar tizimida amalga oshirilgan operatsiyalari haqida Operator/Elektron pullar tizimining operatorining web-saytida yoki boshqa usullarda ma'lumot/ko'chirmalar olish.

#### **5. Mobil elektron to'lovlar xizmatlarini taqdim etish.**

- Operatorning mukofoti.
- 5.1. Operator/Elektron pullar tizimi operatori Abonentdan mobil elektron to'lov xizmatlari uchun mukofot puli/komissiyani undirishi mumkin.
- 5.1.1. Abonent tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan mukofot/komissiya miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar Abonentga Operator/Elektron pullar tizimi operatorining rasmiy web-saytida e'lon qilinadi.

#### **6. Operator va Abonentning javobgarligi**

6.1. Abonentning Elektron pullar bilan operatsiyalari Elektron pullar tizimida amalga oshiriladi. Bunda, Elektron pullar tizimining noto‘g‘ri ishlashi va/yoki hisob-kitob ishtirokchilari o‘rtasida axborot va texnologik hamkorlikni ta‘minlash bo‘yicha xizmatlarning noto‘g‘ri ko‘rsatilishi, shu jumladan, Elektron pullardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirishda shakllanadigan axborotni yig‘ish, qayta ishlash va uzatish, to‘lovlar va (yoki) pul o‘tkazish bilan bog‘liq o‘z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Elektron pullar tizimi operatori yoki uchinchi shaxslar javobgar bo‘ladi.

6.2. Mobil elektron to‘lov xizmatlarini ko‘rsatish doirasida xizmat ko‘rsatish majburiyatları, tovarlar va ishlarni yetkazib berish, ularning sifati hamda muddatida yetkazib berish bo‘yicha javobgarlik yetkazib beruvchining zimmasida bo‘ladi.

6.2.1. Yetkazib beruvchi tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar, ishlar va sotilgan tovarlar bo‘yicha yuzaga kelgan barcha da‘volar/e‘tirozlar, shuningdek, tovarlar va/yoki xizmatlar va/yoki ishlarni almashtirish – qaytarish talablari Abonent tomonidan bevosita yetkazib beruvchiga taqdim etilishi shart. Ularning rekvizitlari tovar, ish yoki xizmat sotib olinadigan web-saytda/elektron platformada ko‘rsatilgan bo‘ladi.

6.2.2. Abonent 6.2-bandda ko‘rsatilgan holatlар yuzaga kelganga Elektron pullar tizimi operatorining va/yoki uchinchi shaxslarning foydalanuvchilarini qo‘llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilishi lozim.

6.3. Operator, Operatorning aybi bo‘lmagan holda texnik platformalar va axborot tizimlari yoki tarmoqlari ishida kechikishlar va uzhishlar uchun Abonent oldida javobgar bo‘lmaydi.

6.4. Abonent nomiga rasmiylashtirilgan Abonent raqami orqali yoki unga tegishli Abonent qurilmasida o‘rnatilgan maxsus ilovalar yordamida yoki web-saytlardagi identifikatsiya yoki autentifikatsiya ma’lumotlari yordamida amalga oshirilgan Abonent qurilmasining foydalanuvchilarini yoki uchinchi shaxslarning harakatlari uchun barcha xatarlar (risklar) bo‘yicha to‘liq javobgarlikni Abonent o‘z zimmasiga oladi.

6.5. Operator yetkazib beruvchi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar, yetkazib beriladigan tovarlar, ishlar sifati uchun javobgar bo‘lmaydi.

6.6. Operator Abonentning xatti-harakatlari va uning Abonent (shaxsiy) ma’lumotlarini noto‘g‘ri kiritish va ularni to‘ldirishda, ko‘rsatishda, shuningdek, Elektron pullar tizimining boshqa ishtirokchilari tomonidan yo‘l qo‘ilgan xatolar bilan bog‘liq oqibatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

6.7. Abonent qurilmasi yoki Abonentning SIM/eSim -kartasi yo‘qotilgan, o‘g‘irlangan yoki Abonentning egaligidan boshqa usullarda chiqib ketgan hollarda, Abonentning ushbu Abonent qurilmasi va/yoki SIM/eSim -kartadan uchinchi shaxslarning foydalanishi bilan bog‘liq barcha xatarlar (risklar) bo‘yicha javobgarlik Abonent tomonidan Operatorga Abonent raqamini yoki SIM/eSim -kartani bloklash to‘g‘risida ariza topshirilgunga qadar Abonent zimmasida qoladi.

6.8. Abonent tomonidan Elektron pullar tizimida amalga oshirilgan noto‘g‘ri operatsiyalar, shu jumladan, Elektron pullarni o‘tkazish bo‘yicha yoki elektron hamyon bilan bog‘liq boshqa noto‘g‘ri operatsiyalar, shuningdek, yetkazib beruvchi tomonidan majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun (agar ushbu yetkazib berish shartnomasi bo‘yicha nazarda tutilgan To‘lov agentining majburiyatları to‘liq hajmda bajarilgan bo‘lsa ham) Operator javobgar bo‘lmaydi.

## **7. Abonent tomonidan elektron hamyonlarni to‘ldirish va Elektron pullar bilan operatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish tartibi.**

7.1. Elektron hamyonni to‘ldirish va elektron pul bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun Abonent elektron pul tizimi operatoriga ko‘rsatma yuboradi, bu ham Operatorga elektron hamyonni to‘ldirish uchun asos va ko‘rsatma bo‘ladi. elektron pul bilan rejalashtirilgan operatsiya va Abonent o‘z yo‘nalishi bo‘yicha aniqlangan elektron pul bilan operatsiyani bajarish bo‘yicha ko‘rsatma. Tegishli elektron pul tizimi operatori Abonent operatsiyalari miqdorining Operator va elektron pul tizimi operatori tomonidan belgilangan chegaralarga muvofiqligini nazorat qilishni, shuningdek, bunday operatsiyalarning talablarga muvofiqligini nazorat qilishni ta‘minlaydi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, shu jumladan. jinoyatchilikdan olingen daromadlarni legallashtirishga (legallashtirishga) va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari. Abonent amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq masofadan identifikatsiyalashni amalga oshirish uchun Operatorga o‘z shaxsiy ma’lumotlarini elektron pul tizimi Operatoriga keyingi ishlov berish uchun berishga roziligini beradi.

7.2. Abonentning elektron hamyonini to‘ldirish Abonentning Shaxsiy hisob raqamidagi mablag‘i hisobiga, Elektron pullar tizimi operatoridan Elektron pullar olish va ularni Abonentning elektron hamyoniga o‘tkazish ko‘rsatmasi assosida amalga oshiriladi. Bunda Abonentning elektron hamyonini to‘ldirish to‘g‘risidagi ko‘rsatma Operator tomonidan elektron pul tizimi amalga oshirilgandan so‘ng Operatorga Abonentning operatsiya summasi miqdorining operator va operator tomonidan elektron pul tizimi chegaralariga muvofiqligini tekshirish, shuningdek bunday operatsiyalarning O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy

qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiqligini tekshirish Abonent Operatorga amaldagi Qonunchilik talablariga muvofiq masofadan turib identifikatsiyalashni amalga oshirish maqsadida Elektron pullar tizimining operatoriga shaxsiy ma'lumotlarini uzatishga rozilik beradi.

7.3. Abonentning ko'rsatmasida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak: to'lov miqdori, elektron to'lovni amalga oshirish uchun talab qilinadigan rekvizitlar (Shaxsiy (elektron) hisob raqami, yetkazib beruvchi talablariga muvofiq boshqa rekvizitlar). Elektron pullar Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamidagi mavjud qoldiq mablag'lar hisobidan sotib olinishi mumkin.

7.4. Ko'rsatmada kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riliqi uchun Abonent javobgardir.

7.5. Abonentning ko'rsatmasi Abonent qurilmasidan va/yoki Rasmiy saytlarda joylashtirilgan ko'rsatmalarga muvofiq, quyidagi usullardan birida amalga oshiriladi:

7.5.1. 5505 raqamiga Qisqa matnli xabarlar va tegishli yo'riqnomada ko'rsatilgan boshqa raqamlarni yuborish orqali;

7.5.2. Rasmiy saytlarning grafik interfeyslarida joylashtirilgan ko'rsatmalarga rioxasi qilish.

7.6. Abonent tomonidan ko'rsatma yuborilganda, To'lov xavfsizligini oshirish va/yoki Abonent ko'rsatmasiga aniqlik kiritish maqsadida, Operator Abonent tomonidan bir martalik kodlarni kiritishni va/yoki Abonent tomonidan qo'shimcha yuborishni nazarda tutishi mumkin. Qisqa matnli xabarlar. Operator sheriklariga tegishli Rasmiy web-saytlarning grafik interfeyslari yordamida yuborilgan Abonent yo'riqnomasini olganda, Abonent bir martalik kodlarni kiritishi va/yoki Abonent qo'shimcha Qisqa matnli xabarlarini yuborishi To'lov/Ko'rsatmalarni tekshirishning majburiy tartibi hisoblanadi.

7.7. Ko'rsatmalarni taqdim etish usullari Operator tomonidan bir tomonlama o'zgartirilishi va/yoki to'ldirilishi mumkin.

7.8. Ushbu elektron pul tizimida yakka tartibdagi tadbirkorlarning maxsus elektron hamyonlaridagi elektron pullar qayta sotilmaydi.

## 8. Alovida shartlar

8.1. Quyidagi hollarda Abonent Elektron pullar tizimining operatoriga ushbu Operator web-saytida ko'rsatilgan telefon raqamlar orqali murojaat qilishi lozim:

- elektron pullardan foydalanilganlik haqida ma'lumotlar yoki Elektron pullar tizimidan ko'chirmalar olish uchun;
- parolni tiklash masalalari bo'yicha, shu jumladan, mobil ilova orqali parolni tiklash imkonini bo'lmagan taqdirda;
- Elektron pullarni chiqarish, hisobga olish va to'lovni amalga oshirish bo'yicha;
- mablag'larni noto'g'ri o'tkazish va/yoki yechish bilan bog'liq nizoli holatlar bo'yicha.

8.2. Xizmat ko'rsatish shartlari (shu jumladan Emitent komissiyalarini, pul o'tkazish operatsiyalarini amalga oshiruvchi tashkilotlar va Elektron pullar tizimi operatorining mukofotlarini o'z ichiga oladi), Elektron pullar vositasidan foydalanish, emitent, Elektron pullar tizimi operatori va to'lov agenti yoki subagenti sifatida to'lov operatsiyalarini amalga oshiruvchi uchinchi shaxslar haqidagi ma'lumotlar Elektron pullar tizimi operatorining web-saytida joylashgan (ushbu haqda tegishli ma'lumotlar Kompaniyaning [www.beeline.uz](http://www.beeline.uz) rasmiy web-saytida joylashtiriladi).

8.2.1. Abonent Operatorning axborot tizimi va tarmog'i orqali Mobil elektron to'lov xizmatlaridan foydalanishni boshlashidan oldin ushbu ma'lumotlar bilan tanishib chiqishi shart.

8.3. Mobil elektron to'lov xizmatlari imkoniyatlari boshqa yetkazib beruvchilar va emitentlarni hamkor sifatida jalb qilish yoki ushbu qoidalarga boshqa o'zgartirishlar kiritish orqali kengaytirilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

Ushbu haqda tegishli ma'lumotlar Operatorning web-saytida «Xizmatlar uchun to'lov» bo'limida yoki Elektron pullar tizimi operatorining web-saytida joylashtiriladi yoxud tegishli mobil ilova orqali xabarnoma e'lon qilinadi.

8.4. Abonent ushbu Qoidalarning barcha shartlariga o'z roziligidini bildirishi bilan bir qatorda, Operatordan Mobil elektron to'lov xizmatlariga oid SMS-xabarlarni, shuningdek, ro'yxatdan o'tish vaqtida ko'rsatiladigan o'zining elektron pochta manziliga tegishli xabarlarni va yangiliklarni qabul qilishga rozilik beradi.

8.5. Operator uchinchi shaxslar bilan tuzilgan maxfiylik to'g'risidagi Sharhnomaga asosida Abonentning shaxsiy ma'lumotlarini faqat ushbu Qoidalarda nazarda utilgan majburiyatlarni bajarish maqsadida qayta ishlashga topshirishi mumkin.

Abonentga Mobil elektron to'lov xizmatlari bo'yicha maslahatlar Kompaniyaning [www.beeline.uz](http://www.beeline.uz) rasmiy saytida joylashtirilgan telefon raqamlariga qo'ng'iroq qilish orqali qo'llab-quvvatlash markazi (Call-markaz) tomonidan amalga oshiriladi.

8.6. Elektron pullar tizimining operatori elektron hamyonlardan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha operatsiyalarning ro'yxatga olinishini, operatsiyalar to'g'risida statistik va axborot tarzidagi hisobotlarning shakllantirilishini va operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni ular shakllantirilgan, jo'natilgan yoki qabul qilingan formatda, yaxlitligi va o'zgarmasligiga amal qilgan holda 5 (besh) yildan kam bo'lмаган muddatda saqlanishini ta'minlaydi.

8.7. Ushbu Qoidalar va unga kiritilgan barcha ilovalar Ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi va Operatorning saytida e'lon qilinadi.

8.8. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha huquqiy munosabatlar Ommaviy oferta qoidalariga muvofiq yoki amaldagi qonunchilik doirasida tartibga solinadi.

## **9. Amal qilish muddati**

9.1. Ushbu Qoidalar Ommaviy ofertaning amal qilishi davrida to'liq amal qiladi (Operator tomonidan tegishli xabarnoma berish orqali Mobil elektron to'lov xizmatlari taqdim etilishini to'liq to'xtatish/tugatish hollari bundan mustasno).

“Unitel” MChJ tomonidan telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Ommaviy ofertaga 3-ilova

**Abonent raqamlarini ko'chirish (MNP) xizmatlarini taqdim etish tartibi (keyingi o'rnlarda Tartib deb yuritiladi)**

**Donor-operator** - abonent raqami telekommunikatsiya tarmog'idan uzatiladigan uyali aloqa operatori;  
**Qabul qiluvchi operator (recipient)** – abonent raqami telekommunikatsiya tarmog'iga ko'chirilgan mobil aloqa operatori;

**KRMB operatori** — KRMB shakllantirilishi, ishlashi, texnik kuzatilishi va rivojlanishini ta'minlaydigan, uning resurslaridan foydalanishni taqdim etadigan tashkilot;

**Xato ko'chirish-** uyali aloqa operatorlari (provayderlar) tomonidan abonentdan arizasiz abonent raqamini ko'chirish ("inson omili" bilan bog'liq xato tufayli abonentdan arizada ko'rsatilgan raqam o'rniga boshqa raqamni ko'chirish, ya'ni , texnik tizimlar bilan o'zaro aloqada bo'lgan xodimlarning noto'g'ri harakatlari tufayli);

**Abonent raqamini ko'chirish (MNP)** - boshqa operator (qabul qiluvchi) bilan yangi shartnomalar tuzishda uyali aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi asosida donor tomonidan ajratilgan abonent raqamini saqlash va undan foydalanish bo'yicha tashkiliy va texnik chora-tadbirlar kompleksi. Abonent raqamini ko'chirish Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalarida (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyundagi 3275-sod ro'yxatidan o'tkazilgan) nazarda tutilgan.

**Port-In** - Qabul qiluvchi operatoridan Donor operatoriga o'tish;

**Port-Out** - Donor operatoridan Qabul qiluvchi operatorga o'tish

### **1. Abonent raqamlarini ko'chirish (MNP) bo'yicha xizmat ko'rsatish shartlari:**

1.1. Mobil aloqa tarmoqlarida abonent raqamini ko'chirish to'g'risidagi ariza abonentdan shaxsini tasdiqlovchi hujjat ko'rsatilgan holda (qabul qiluvchi operatorning texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda) qabul qiluvchi operator ofisining mijozlarga xizmat ko'rsatish punktida qabul qilinadi.

- 1.2. Abonent raqamini Donor-operatordan Qabul qiluvchi operatorga ko'chirish abonent shartnomasi tuzilganiga 90 kalendar kuni o'tganidan keyin amalga oshiriladi.
- 1.3. Donor-operatordan boshqa shaxsga ko'chirilgan abonent raqamini qayta ro'yxatdan o'tkazish 30 kalendar kundan keyin amalga oshirilishi mumkin.
- 1.4. Raqamni ko'chirish xizmati abonentga har 30 kalendar kunida bir martadan ko'p bo'limgan holda taqdim etiladi.

## **2. Operatorning majburiyatları va huquqlari:**

### **2.1. Operator va qabul qiluvchining majburiyatları:**

- 1) abonent raqamini ko'chirish to'g'risidagi arizani qabul qilish va Telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish qoidalarida (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2020-yil 30-iyundagi 3275-sodan ro'yxatidan o'tkazilgan) belgilangan barcha shartlar bajarilgan taqdirda, raqamni ko'chirish mumkin (Port-In).
- 2) arizani to'ldirishning to'g'rilibini tekshiring, uni ro'yxatdan o'tkazing va KRMB-ga so'rov yuboring yoki ariza KRMB interfeysi orqali KRMB operatori tomonidan qabul qilinganligini tasdiqlang.
- 3) Ommaviy oferta shartlarida nazarda tutilgan tartibda, abonent bilan yangi shartnoma tuzish va unga qabul qiluvchiga berilgan raqamlash diapazonidan vaqtinchalik raqamga ega va abonent tomonidan arizada ko'rsatilgan tarif rejasiga ulangan yangi SIM-kartani berish.
- 4) abonentni SIM-kartaga vaqtinchalik raqam bilan SMS-xabar jo'natib, rad etish sababini ko'rsatgan holda KRMB operatoridan abonent raqamini ko'chirish rad etilganligi to'g'risida xabar berish.

### **2.2. Operator, donor majburiyatları:**

- 1) KRMB operatoriga quyidagi hollarda abonent raqamini ko'chirishni rad etish to'g'risida asosli xabar yuborish lozim:
  - donor operator tomonidan abonentning ishonchsi shaxsiy ma'lumotlarini olish (KRMB so'rovida olingan shaxsiy ma'lumotlar bilan donor va abonent o'tasidagi uyali aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasida ko'rsatilgan ma'lumotlar o'tasidagi nomuvofiqlik; abonent raqami ko'chirish uchun ariza bergen shaxsga tegishli emas; ariza bergen shaxsning vakolatlari yetarli bo'limgan taqdirda);
  - rouming xizmatlari bundan mustasno, donor bilan tuzilgan aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi bo'yicha donor tomonidan tekshirish vaqtida abonentda qarzdorlik mavjudligi;
  - abonentning donor oldidagi shartnoma bo'yicha majburiyatları bor-yo'qligi ("Muddatli to'lov evaziga oltin raqam", "Abonent to'lovi uchun oltin raqam", "Ishonchli to'lov", muddatli to'lov evaziga bepul oltin raqamga ega "Status" turkumidagi tarif rejasiga ulangan raqam; abonent raqamini blokirovka qilish va boshqalar).

## **3. Abonentning majburiyatları va huquqlari:**

### **3.1. Abonent quyidagilarga majbur:**

- 1) agar donor bilan uyali aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzilgan paytdan boshlab abonent raqamini qabul qiluvchi operatorga ko'chirish to'g'risida ariza berishdan oldin operator, abonentning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning shaxsiy ma'lumotlarida o'zgarishlar yuz bergen bo'lsa (familiyasini o'zgartirish, pasportni almashtirish va boshqalar) donor operator bilan uyali aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasini qayta tuzilishi kerak.

### **3.2. Abonent quyidagi huquqlarga ega:**

- 1) abonent raqamini qabul qiluvchi operatorga ko'chirish uchun ariza berish.
- 2) donor abonent raqamini ko'chirish so'rovini tasdiqlamaguncha, abonent raqamini ko'chirish xizmatlaridan voz kechish.